ARP
Academic research publisher

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ОПЫТ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

25 ИЮЛЯ 2026

academscience.com

Zenodo | OpenAIRE

Academic Research Publisher (United Kingdom)

UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

Hamroh books (Uzbekistan)

****

Сборник материалов международной научно-практической конференции «МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ОПЫТ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

Ташкент,

25-июль, 2026

****

Междисциплинарные исследования и инновационное развитие: опыт, проблемы и перспективы // Сборник материалов международной научно-практической конференции, 25-июль, 2026. Ташкент.

Члены редакционной коллегии конференции

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N. -** PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D. -** DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V. -** PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A. -** PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M. -** DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo‘shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

Цель мероприятия заключается в обсуждении современных исследований, проводимых в различных научных направлениях, налаживании обмена новыми научными идеями, а также поддержке научной деятельности, соответствующей мировым инновационным процессам.

В рамках конференции учёные, исследователи, молодые учёные и практикующие специалисты получат возможность представить результаты своих научных исследований, обменяться научными идеями и расширить международное сотрудничество.

Основной целью данной международной научно-практической конференции является обобщение результатов современных исследований, проводимых в различных научных областях, а также укрепление интеграции науки и практики на основе передовых научных подходов.

Авторы несут полную ответственность за достоверность и надёжность содержания, сведений, фактов и статистических данных, приведённых в статьях.

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (July 24, 2026, Protocol No. 25).

ОГЛАВЛЕНИЕ

3. ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, ГЕОЭКОЛОГИЯ И КОСМИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ 6

GEOGRAFIK TADQIQOTLAR, GEOEKOLOGIYA VA KOSMIK TEXNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA AMALIY AHAMIYATI 7

ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARINING ATMOSFERAGA TA'SIRI 13

5. МЕДИЦИНА, ФАРМАЦЕВТИКА И ОБЩЕСТВЕННОЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЕ 19

BOLALARDA ANTIBIOTIK-ASSOTSIATSIYALANGAN DIAREYALARDA ENTERAL YALLIG'LANISH MARKERLARINING KLINIK-DIAGNOSTIK AHAMIYATI 20

O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: TELEMEDITSINANI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) ASOSIDA JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL-HUQUQIY MODELLARI VA 'HEALTH IN ALL POLICIES' YONDASHUVI 28

6. ЭКОНОМИКА, УПРАВЛЕНИЕ, ТУРИЗМ И ПРАВОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ 37

FOREIGN EXPERIENCE IN STATE FINANCIAL CONTROL AND ITS APPLICABILITY TO UZBEKISTAN'S PRACTICE 38

O'ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMINING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA ISTIQBOLLARI 54

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM KLASTERLARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 59

ИНФЛЯЦИОН ТАРГЕТЛАШ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА МОНЕТАР МЕХАНИЗМЛАР ВА ИНФЛЯЦИЯНИ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИ 69

MINTAQADA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA MAKROIQTISODIY SIYOSAT USULLARI 77

7. ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ И ФИЛОЛОГИЯ .. 84

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ 85

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМООПРЕДЕЛЕНИЯ СТАРШЕКЛАССНИКОВ 95

TARIX FANINI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNING TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH 107

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ КАК ОДНО ИЗ ЭФФЕКТИВНЫХ СРЕДСТВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА..... 112

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING FANLARARO INTEGRATIV RIVOJLANISHINI TA’MINLASH TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI 119

HARBIY XIZMATCHILARNINIG KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANISHTIRISHDA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH BOSQICHLARI 124

6-7 YOSHLI BOLALAR NUTQ FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI..... 132

GO‘ZAL BEGIM IJODIDA UCHLIK SHE’RLAR (“SACHRATQI”) POETIKASI: SHAKL, OBRAZ VA FALSAFIY MAZMUN TAHLILI..... 137

ICHKI LOKUS NAZORATI TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGI OMILI SIFATIDA 145

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI..... 160

8. СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫЕ НАУКИ, ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ И ИСКУССТВО..... 172

ELLINIZM DAVRIDA O‘RTA OSIYODA SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI..... 173

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING SIYOSIY ISHTIROKINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI 178

SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA ADABIYOT VA KITOBXONLIK MADANIYATI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 188

3. ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, ГЕОЭКОЛОГИЯ И КОСМИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ

GEOGRAFIK TADQIQOTLAR, GEOEKOLOGIYA VA KOSMIK TEXNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA AMALIY AHAMIYATI

Davletyorova D. D.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,

dilafruzdavletyorova@gmail.com

Annotasiya . *Ushbu maqolada zamonaviy geografik va geoekologik tadqiqotlarda kosmik texnologiyalar hamda Yer hisobidan masofadan zondlash (MZ) usullarini qo‘llash masalalari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi kosmik ma’lumotlar va Geoaxborot tizimlari (GIS) integratsiyasining atrof-muhit monitoringi, landshaftlar transformatsiyasi va ekologik xavflarni baholashdagi samadorligini ko‘rsatib berishdan iborat. Ishda ko‘p yillik yo‘ldosh ma’lumotlari (Landsat, Sentinel) va makoniy tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kosmik monitoring o‘simlik qoplami indekslari (NDVI) va suv havzalari dinamikasini 85–90% aniqlik bilan baholash imkonini beradi. Olingan xulosalar mintaqaviy geoekologik muammolarni bartaraf etish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы применения космических технологий и методов дистанционного зондирования Земли (ДЗЗ) в современных географических и геоэкологических исследованиях. Цель исследования заключается в демонстрации эффективности интеграции космических данных и геоинформационных систем (ГИС) в мониторинге окружающей среды, трансформации ландшафтов и оценке экологических рисков. В работе использованы многолетние спутниковые данные (Landsat, Sentinel) и методы пространственного анализа. Результаты показали, что космический мониторинг позволяет с точностью 85–90% оценивать индексы*

растительного покрова (NDVI) и динамику водоемов. Полученные выводы имеют практическое значение для решения региональных геоэкологических проблем и разработки стратегий устойчивого развития.

Abstract *. This article addresses the application of space technologies and Earth remote sensing (RS) methods in modern geographical and geoecological research. The objective of the study is to demonstrate the effectiveness of integrating satellite data and Geographic Information Systems (GIS) in environmental monitoring, landscape transformation analysis, and ecological risk assessment. Long-term satellite data (Landsat, Sentinel) and spatial analysis methods were utilized in the work. The results indicate that satellite monitoring enables the evaluation of vegetation indices (NDVI) and water body dynamics with an accuracy of 85–90%. The findings hold practical value for resolving regional geoecological issues and developing sustainable development strategies.*

Kalit so‘zlar: *geografik tadqiqotlar, geoekologiya, kosmik texnologiyalar, masofadan zondlash, GIS, NDVI, ekologik monitoring.*

Ключевые слова*: географические исследования, геоэкология, космические технологии, дистанционное зондирование, ГИС, NDVI, экологический мониторинг.*

Keywords*: geographical research, geoecology, space technologies, remote sensing, GIS, NDVI, environmental monitoring.*

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda global iqlim o‘zgarishi, antropogen bosimning keskin ortishi hamda tabiiy resurslarning intensiv o‘zlashtirilishi geografiya va geoekologiya fanlari oldiga yangi usul va yondashuvlarni tatbiq etish vazifasini qo‘ymoqda. An’anaviy dalahamda laboratoriya tadqiqotlari atroflicha ma’lumot bersa-da, ular keng hududlarni bir vaqtning o‘zida hamda uzluksiz monitoring qilish imkoniyatini yetarlicha ta’minlay olmaydi [1, 4].


Aynan shu sababli, Yer atrofi kosmik fazosidan olinadigan ma’lumotlar va Geoaxborot tizimlari (GIS) integratsiyasi zamonaviy geografik izlanishlarning ajralmas qismiga aylandi. Kosmik texnologiyalar geografik qobiqdagi tezkor (masalan, toshqinlar, yong‘inlar) va sekin kechadigan (cho‘llanish, muzliklarning erishi) jarayonlarni vaqtinchalik va fazoviy masshtabda aniq tasvirlash imkonini beradi [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi — geografik va geoekologik muammolarni tahlil qilishda kosmik texnologiyalarning o‘rni, ularning amaliy samaradorligi hamda zamonaviy masofadan zondlash usullarining imkoniyatlarini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Metodlar

Tadqiqotda kompleks geografik-geoekologik yondashuv, kartografik va makoniy-vaqtinchalik tahlil usullaridan foydalanildi. Metodologik baza sifatida quyidagi vosita hamda ma’lumotlar manbalari qo‘llanildi:

- Kosmik ma’lumotlar manbasi: Landsat (TM/ETM+/OLI) va Sentinel-2 sun’iy yo‘ldoshlarining ko‘p spektrli tasvirlari.
- Dasturiy ta’minot: Makoniy ma’lumotlarni qayta ishlash, raqamli xaritalashtirish hamda tasvirlar klassifikatsiyasi uchun ArcGIS Pro va QGIS dasturlar majmuasi.
- Geoekologik ko‘rsatkichlar tahlili: O‘simlik qoplamining holati va degradatsiyasini baholash uchun Normallashtirilgan Farqli O‘simlik Indeksi (NDVI) hamda suv ob’yektlarini ajratish uchun NDWI (Normalized Difference Water Index) formulalaridan foydalanildi: (Bu yerda: NIR — yaqin infraqizil spektr, Red — qizil spektr).



1-rasm. Sentinel-2 va Landsat sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari bazasida yer monitoringi va ekologik tahlil jarayoni

Natijalar (Results)

Olib borilgan tahlillar va zamonaviy adabiyotlar hamda kosmik ma’lumotlar sintetik o‘rganilishi natijasida quyidagi asosiy ilmiy va amaliy natijalar olindi:

- O‘simlik qoplami va yer degradatsiyasi monitoringi: Multi-spektrli kosmik tasvirlarni vaqtlar kesimida (retrospektiv) solishtirish orqali muayyan hududdagi vegetatsiya dinamikasini yuqori aniqlikda kuzatish imkoniyati tasdiqlandi. NDVI ko‘rsatkichlari asosida cho‘llanishga moyil bo‘lgan hududlarda o‘simlik qoplamining 15–20% ga qisqarganligi tezkor aniqlandi.
- Gidroekologik ko‘rsatkichlar va suv havzalari dinamikasi: Suv resurslarini masofadan zondlash orqali daryo va ko‘l havzalari майдонининг o‘zgarishi, o‘zan jarayonlari hamda suv omborlarining loyqalanish darajasi xaritalashtirildi. Xususan, transchegaraviy daryolar (Amudaryo va Sirdaryo) va Orolbo‘yi mintaqasida landshaftlarning transformatsiyalashuvi raqamli modellar ko‘rinishiga keltirildi [5].
- Favqulodda ekologik vaziyatlarni tezkor aniqlash: Kosmik texnologiyalar chang va qum bo‘ronlarining harakat trayektoriyasini aniqlash, o‘rmon va qamishzor

yong‘inlari o‘choqlarini real vaqt rejimida qayd etish hamda ularning zarar ko‘lamini baholash vaqtini 3–4 baravarga qisqartirishini ko‘rsatdi.

Munozara (Discussion)

Olingan natijalar kosmik texnologiyalarning geoekologik izlanishlardagi ustunligini ko‘rsatadi. Biroq, an’anaviy daladagi tadqiqotlarni butunlay kosmik ma’lumotlar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Eng yuqori aniqlik va samaradorlikka "kosmik monitoring + GIS tahlil + daladagi nazorat o o‘lchovlari" uchligi integratsiya qilingandagina erishiladi [3, 6].

Shuningdek, kosmik ma’lumotlarni qayta ishlashda uchraydigan ayrim cheklovlar — masalan, bulutlilik darajasining yuqoriligi yoki atmosfera xalal berishlari Sun’iy Intellekt (AI) va mashinali o‘rgatish (Machine Learning) algoritmlarini qo‘llash orqali bartaraf etilmoqda.

Kelgusida geoekologik tadqiqotlarda uch o‘lchamli (3D) raqamli relyef modellarini yaratish hamda kosmik radiolokatsion ma’lumotlardan foydalanish hududiy ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim qadam bo‘ladi.

Xulosa (Conclusion)

Geografik tadqiqotlar va geoekologik monitoringda kosmik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda shunchaki yordamchi vosita emas, balki obyektiv va aniq natijalarga erishishning asosiy usulidir. Masofadan zondlash va GIS texnologiyalari yordamida tabiatdagi murakkab jarayonlarni uzluksiz kuzatish, kelajakdagi o‘zgarishlarni model qilish hamda tabiatdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Choriev A. K., Baratov X. A. Geoekologiya va atrof-muhit muhofazasi: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 240 b.

2. Kravsova V. I. Kosmicheskie metody kartografirovaniya: uchebnik / pod red. A. M. Berlyanta. – Moskva: Aspekt Press, 2005. – 288 s.

3. Lurye I. K. Geoinformatika. Prikladnyye aspekty: uchebnoye posobiye. – Moskva: KnoRus, 2015. – 268 s.

4. Nigmatov A. N. Ekologiya va geoekologiya asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. – 192 b.

5. Rakhmatullaev A., Abdullaev I. Remote Sensing and GIS Applications in Water Resources Management in Central Asia // Journal of Arid Land Studies. – 2019. – Vol. 29, No. 2. – P. 45–52.

6. Chadurli M., Yilmaz H. Uzaktan Algılama ve Coğrafi İşaretleme Sistemlerinin Çevre Araştırmalarındaki Rolü // Türk Coğrafya Dergisi. – 2021. – Sayı 76. – S. 115–124.

ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARINING ATMOSFERAGA TA'SIRI

Abdullayev Azizbek Abdumutalxon o'g'li
Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston.
E-mail: azizbekabdullayev213@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada issiqlik elektr stansiyalarida organik yoqilg'ilarning yonishi natijasida hosil bo'ladigan asosiy atmosfera chiqindilari tahlil qilindi. Karbonat angidrid, oltingugurt dioksidi, azot oksidlari va qattiq zarrachalarning havo sifati, iqlim hamda inson salomatligiga ta'siri yoritildi. Emissiyalarni kamaytirishning texnologik va tashkiliy yo'llari asoslandi.*

Abstract. *The article analyzes the main atmospheric emissions produced by the combustion of fossil fuels at thermal power plants. It examines the effects of carbon dioxide, sulfur dioxide, nitrogen oxides, and particulate matter on air quality, climate, and human health. Technological and organizational measures for reducing emissions are also substantiated.*

Аннотация. *В статье проанализированы основные выбросы в атмосферу, образующиеся при сжигании органического топлива на тепловых электростанциях. Рассмотрено влияние диоксида углерода, диоксида серы, оксидов азота и твёрдых частиц на качество воздуха, климат и здоровье человека. Обоснованы технологические и организационные меры по снижению выбросов.*

Kalit so'zlar: *issiqlik elektr stansiyasi, atmosfera, karbonat angidrid, azot oksidlari, oltingugurt dioksidi.*

Keywords: *thermal power plant, atmosphere, carbon dioxide, nitrogen oxides, sulfur dioxide.*

Ключевые слова: *тепловая электростанция, атмосфера, диоксид углерода, оксиды азота, диоксид серы.*

KIRISH. Issiqlik elektr stansiyalari ko‘mir, tabiiy gaz yoki mazutni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Yoqilg‘ining yonishi natijasida atmosferaga karbonat angidrid — CO_2, oltingugurt dioksidi — SO_2, azot oksidlari — NO_x, uglerod monoksidi — CO, qattiq zarrachalar va ayrim toksik birikmalar chiqariladi. Ushbu chiqindilarning tarkibi va miqdori yoqilg‘i turi, yonish texnologiyasi, uskunalarning texnik holati hamda gazlarni tozalash tizimiga bog‘liq.

Ko‘mir va mazut yoqilganda oltingugurt birikmalari, kul va qattiq zarrachalar ko‘proq hosil bo‘ladi. Tabiiy gazning yonishi qattiq zarrachalar va SO_2 chiqarilishi jihatidan nisbatan tozaroq, biroq u ham CO_2 va NO_x emissiyasini yuzaga keltiradi. Shu sababli issiqlik elektr stansiyalarining atmosferaga ta’sirini kamaytirish energetika sohasidagi muhim ekologik vazifalardan biridir. Qazilma yoqilg‘ilarning elektr stansiyalarida yonishi CO_2, SO_2, NO_x, qattiq zarrachalar va simob kabi ifloslantiruvchilarni hosil qilishi rasmiy ekologik manbalarda qayd etilgan.

Mazkur maqolaning **maqsadi** issiqlik elektr stansiyalaridan atmosferaga chiqariladigan asosiy ifloslantiruvchi moddalarni tahlil qilish, ularning ekologik oqibatlarini yoritish hamda emissiyalarni kamaytirishga qaratilgan amaliy choralarni asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotda sharh-tahliliy, tasniflash va qiyosiy baholash yo‘nalishda olib borildi. Unda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi, Xalqaro energetika agentligi va AQSh Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligining rasmiy materiallari o‘rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Issiqlik elektr stansiyalarining atmosferaga ta’siri yoqilg‘ining yonish jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Asosiy chiqindilar va ularning ta’siri quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ifloslantiruvchi modda	Hosil bo‘lish manbai	Asosiy ta’siri
CO_2	Uglerodli yoqilg‘ining yonishi	Iqlim o‘zgarishining kuchayishi
SO_2	Yoqilg‘idagi oltingugurtning oksidlanishi	Kislotali yog‘inlar va nafas yo‘llarining zararlanishi
NO_x	Yuqori haroratli yonish jarayoni	Smog, troposfera ozoni va kislotali yog‘inlar
CO	Yoqilg‘ining to‘liq yonmasligi	Organizmda kislorod tashilishining buzilishi
$PM_{2.5}$ va PM_{10}	Kul, qurum va mayda zarrachalar	Nafas olish va yurak-qon tomir tizimiga zarar
Simob va boshqa metallar	Ko‘mir va mazut tarkibidagi aralashmalar	Toksik ta’sir va oziq zanjirida to‘planish

Karbonat angidridning ta’siri: CO_2 qazilma yoqilg‘ilar yonishining asosiy mahsulotidir. U atmosferada issiqlikning ushlanib qolishini kuchaytirib, global iqlim o‘zgarishiga ta’sir qiladi. IPCC ma’lumotlariga ko‘ra, global energiya tizimi CO_2 emissiyalarining eng yirik manbai hisoblanadi. Shu sababli energiya sektoridagi chiqindilarni kamaytirish iqlim o‘zgarishini cheklashning asosiy shartlaridan biridir.

Ko‘mir asosida elektr energiyasi ishlab chiqarish energetika sektoridagi eng yirik CO_2 manbalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro energetika agentligi ko‘mir yoqish katta miqdorda CO_2 va boshqa ifloslantiruvchilarni hosil qilishini ta’kidlaydi.

Oltingugurt va azot oksidlarining ta’siri: SO_2 ko‘mir va mazut tarkibidagi oltingugurtning yonishi natijasida hosil bo‘ladi. Atmosferada u sulfat birikmalariga aylanib, kislotali yog‘inlarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Kislotali

yog‘inlar tuproq, o‘simliklar, suv havzalari va qurilish materiallariga zarar yetkazadi. NO_x asosan yuqori haroratli yonish jarayonida hosil bo‘ladi. U atmosferada fotokimyoviy reaksiyalarda qatnashib, troposfera ozoni va ikkilamchi zarrachalarning shakllanishiga yordam beradi. NO_2 va SO_2 Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan havo sifatini baholashda muhim ifloslantiruvchilar sifatida belgilangan.

Qattiq zarrachalarning ta’siri: Ko‘mir yoqiladigan stansiyalarda kul, qurum va mayda dispers zarrachalar hosil bo‘ladi. PM_{10} nafas yo‘llariga kirishi, $PM_{2.5}$ esa o‘pkaning chuqur qismlarigacha yetib borishi mumkin. Uzoq muddatli ta’sir respirator va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti $PM_{2.5}$ va PM_{10} ni inson salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy atmosfera ifloslantiruvchilari qatoriga kiritgan.

Atmosferada tarqalish xususiyatlari: Issiqlik elektr stansiyalaridan chiqqan moddalar shamol tezligi va yo‘nalishi, atmosfera barqarorligi, harorat inversiyasi, namlik, yog‘in va relyef ta’sirida tarqaladi. Baland tutun quvuri chiqindilarni kengroq hududga yoyishi mumkin, ammo ularning umumiy miqdorini kamaytirmaydi.

Shamolsiz va inversiyali sharoitda zararli moddalar yer yuzasiga yaqin qatlamda to‘planadi. Shu bois elektr stansiyalarining ekologik ta’sirini baholashda faqat emissiya miqdorini emas, balki hududning meteorologik va relyef sharoitlarini ham hisobga olish zarur.

Emissiyalarni kamaytirish usullari: Qattiq zarrachalarni kamaytirishda elektrofiltrlar va matoli filtrlar qo‘llaniladi. SO_2 emissiyasini kamaytirish uchun tutun gazlarini oltingugurtdan tozalash, NO_x ni kamaytirish uchun esa past emissiyali gorelkalar va selektiv katalitik qaytarish texnologiyalaridan foydalaniladi. Stansiyaning foydali ish koeffitsiyenti oshirilsa, bir birlik elektr energiyasi uchun sarflanadigan yoqilg‘i va emissiya miqdori kamayadi. Bundan tashqari, tutun quvurlarida uzluksiz avtomatik monitoring o‘rnatilishi chiqindilarni nazorat qilish imkonini beradi.

XULOSA. Issiqlik elektr stansiyalarida qazilma yoqilg‘ilarning yonishi atmosfera havosining ifloslanishiga va iqlim o‘zgarishiga ta’sir qiladi. CO_2 global isishga, SO_2 va NO_x kislotali yog‘inlar hamda smog hosil bo‘lishiga, $PM_{2.5}$ va PM_{10} esa inson salomatligining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Atmosferaga ta’sir darajasi yoqilg‘i turi, uskunalarning samaradorligi, tozalash qurilmalari va mahalliy meteorologik sharoitlarga bog‘liq. Shu sababli issiqlik elektr stansiyalarida emissiyalarni kamaytirish texnologik modernizatsiya, doimiy monitoring va kam uglerodli energiya manbalariga bosqichma-bosqich o‘tish asosida amalga oshirilishi lozim. Atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar miqdorini kamaytirish, havo sifatini yaxshilash va issiqlik elektr stansiyalarining ekologik ta’sirini cheklash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- ✓ Issiqlik elektr stansiyalarida SO_2, NO_x, CO, CO_2 va qattiq zarrachalarni uzluksiz o‘lchaydigan avtomatik monitoring tizimlari hamda samarali gaz tozalash qurilmalari joriy etish.
- ✓ Eskirgan energobloklarni modernizatsiya qilish, yoqilg‘i sarfini kamaytirish va quyosh hamda shamol energetikasining elektr ishlab chiqarishdagi ulushini bosqichma-bosqich oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Health Organization. WHO Global Air Quality Guidelines: Particulate Matter ($PM_{2.5}$ and PM_{10}), Ozone, Nitrogen Dioxide, Sulfur Dioxide and Carbon Monoxide. Geneva: WHO, 2021. ISBN 978-92-4-003422-8.

2. IPCC. Climate Change 2022: Mitigation of Climate Change. Contribution of Working Group III to the Sixth Assessment Report. Cambridge: Cambridge University Press, 2022. DOI: 10.1017/9781009157926.

3. Clarke L., Wei Y.-M., De La Vega Navarro A., Garg A., Hahmann A.N., Khennas S. va boshqalar. Energy Systems. In: Climate Change 2022: Mitigation of Climate Change. Cambridge: Cambridge University Press, 2022.

4. International Energy Agency. The Role of CCUS in Low-Carbon Power Systems. Paris: IEA, 2020.

5. International Energy Agency. Air Quality and Climate Policy Integration in India. Paris: IEA, 2021.

6. United States Environmental Protection Agency. Power Plants and Neighboring Communities. Washington, D.C.: U.S. EPA, 2026.

7. United States Environmental Protection Agency. Human Health and Environmental Impacts of the Electric Power Sector. Washington, D.C.: U.S. EPA, 2025.

8. Oberschelp C., Pfister S., Raptis C.E., Hellweg S. Global emission hotspots of coal power generation. Nature Sustainability. 2019. Vol. 2. P. 113–121. DOI: 10.1038/s41893-019-0221-6.

5. МЕДИЦИНА, ФАРМАЦЕВТИКА И ОБЩЕСТВЕННОЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЕ

BOLALARDA ANTIBIOTIK-ASSOTSIATSIYALANGAN DIAREYALARDA ENTERAL YALLIG‘LANISH MARKERLARINING KLINIK-DIAGNOSTIK AHAMIYATI

Axmedova I.M.,

Berdiboyev R.D.

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, Toshkent, O‘zbekiston

rustambek7169903@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarda antibiotik-assotsiatsiyalangan diareya (AAD) da fekal kalprotektin va laktoferrin darajalarini o‘rganishga va Clostridioides difficile musbat holatlarda neytrofil yallig‘lanishning klinik-diagnostik ahamiyatini baholashga bag‘ishlangan. Tadqiqotga AAD tashxisi qo‘yilgan 20 nafar bola (0–3 yosh) kiritildi. Fekal kalprotektin va laktoferrin darajalari ELISA usuli bilan o‘lchandi. Cl. difficile toksinlari PCR yordamida aniqlandi. Natijalar sog‘lom nazorat guruhi (n=10) bilan solishtirildi.*

Cl. difficile musbat guruhda kalprotektin (424,5±38,2 mkg/g) va laktoferrin (29,1±3,2 mkg/g) darajalari sezilarli yuqori bo‘ldi (p<0,01). Cl. difficile salbiy guruhda bu markerlar nisbatan past edi. Kalprotektin va laktoferrin Cl. difficile bilan bog‘liq AAD ni erta aniqlashda ishonchli ko‘rsatkich hisoblanadi. Tadqiqot AAD ning differensial diagnostikasini yaxshilash va maqsadli terapiya tanlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *antibiotik-assotsiatsiyalangan diareya, Clostridioides difficile, kalprotektin, laktoferrin, neytrofil yallig‘lanish, bolalar.*

Abstract. *This article is devoted to the study of fecal calprotectin and lactoferrin levels in children with antibiotic-associated diarrhea (AAD) and to the evaluation of the clinical and diagnostic significance of neutrophilic inflammation in Clostridioides difficile-positive cases. The study included 20 children (0–3 years old) diagnosed with AAD. Fecal calprotectin and lactoferrin levels were measured by ELISA. Cl. difficile toxins were detected by PCR. The results were compared with a healthy control group (n=10).*

In the Cl. difficile-positive group, calprotectin (424.5±38.2 μg/g) and lactoferrin (29.1±3.2 μg/g) levels were significantly elevated (p<0.01). In the Cl. difficile-negative group, these markers were relatively lower. Calprotectin and lactoferrin are reliable indicators for the early detection of Cl. difficile-associated AAD. The study contributes to improving the differential diagnosis of AAD and selecting targeted therapy.

Keywords: *antibiotic-associated diarrhea, Clostridioides difficile, calprotectin, lactoferrin, neutrophilic inflammation, children.*

Аннотация. *Настоящая статья посвящена изучению уровней фекального калпротектина и лактоферрина у детей с антибиотик-ассоциированной диареей (ААД) и оценке клинико-диагностического значения нейтрофильного воспаления при Clostridioides difficile-положительных случаях. В исследование включены 20 детей (0–3 года) с диагнозом ААД. Уровни фекального калпротектина и лактоферрина определяли методом ИФА. Токсины Cl. difficile выявляли методом ПЦР. Результаты сравнивались со здоровой контрольной группой (n=10).*

В группе Cl. difficile-положительных калпротектин (424,5±38,2 мкг/г) и лактоферрин (29,1±3,2 мкг/г) были значительно повышены (p<0,01). В Cl. difficile-отрицательной группе эти маркеры были относительно ниже. Калпротектин и лактоферрин являются надежными показателями для раннего выявления ААД,

ассоциированной с Cl. difficile. Исследование способствует улучшению дифференциальной диагностики ААД и выбору целенаправленной терапии.

Ключевые слова: *антибиотик-ассоциированная диарея, Clostridioides difficile, калпротектин, лактоферрин, нейтрофильное воспаление, дети.*

KIRISH

Pediatriya va bolalar gastroenterologiyasida keng ta’sir doirasidagi antibakterial preparatlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq asoratlar dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [1, 3]. So‘nggi yillarda nafas yo‘llari infeksiyalari (pnevmoniya, obstruktiv bronxit) bilan kasallangan kichik yoshdagi bolalarda kombinatsiyalangan antibiotikoterapiyadan keyin antibiotik-assotsiatsiyalangan diareya (AAD) holatlari sezilarli darajada ko‘paygan [1, 11].

3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning immunologik va anatomik xususiyatlari, ichak to‘sig‘ining yetilmaganligi antibiotiklar ta’sirida mikrobiota buzilishiga va ichak shilliq qavatida yallig‘lanishga olib keladi [4, 10]. AAD ning og‘ir shakllarida Clostridioides difficile shtammlari muhim rol o‘ynaydi. Bu bakteriya ajratadigan toksinlar ichak epiteliy hujayralarini shikastlab, destruktiv kolit va sepsis rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin [2, 6].

Ko‘pgina holatlarda diareya patogen mikroblarsiz, dorining bevosita ta’sirida yuzaga keladi. Hozirgi vaqtgacha amaliy pediatriyada fekal kalprotektin va laktoferrin kabi neytrofil markerlarining Cl. difficile bilan bog‘liq holatlardagi diagnostik qiymati yetarli o‘rganilmagan [4]. Ushbu markerlar yallig‘lanish turini erta farqlash va maqsadli davolashni takomillashtirishga yordam beradi [1, 3, 17]. Antibiotiklar ichak mikrobiotasini tez o‘zgartiradi, foydali bakteriyalarni (Bifidobacterium, Lactobacillus) kamaytiradi va shartli-patogenlar, jumladan Clostridioides difficile ni faollashtiradi [1].

Zaplatnikov A.L. va hammualliflari (2004) ta’kidlashlaricha, Cl. difficile infeksiyasi AAD ning eng xavfli turi bo‘lib, psevdomembranoz kolit va og‘ir asoratlarga olib keladi [2, 11].

Zamonaviy tadqiqotlarda fekal kalprotektin va laktoferrin ichakning neytrofil yallig‘lanishini aks ettiruvchi eng ishonchli biomarkerlar sifatida tan olingan [4, 17]. Zheng S. va boshq. (2022) ishida bu markerlar ichak devoridagi yallig‘lanish darajasini aniq ko‘rsatishi isbotlangan [4]. Cl. difficile musbat holatlarda ularning darajasi keskin oshadi va infeksion jarayonni tasdiqlaydi.

Fekal kalprotektin neytrofil hujayralaridan ajraladigan marker bo‘lib, normal qiymati 50 mkg/g dan pastdir. Uning yuqori darajasi asosan Clostridioides difficile musbat holatlarda neytrofil yallig‘lanishni bildiradi [4, 17].

Laktoferrin ham neytrofil manbali marker hisoblanadi. Normal qiymati 10 mkg/g dan past bo‘lib, yuqori ko‘rsatkich infeksion-destruktiv jarayonni, xususan bakterial infeksiyani ko‘rsatadi [4].

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqot Zangiota tuman tibbiyot birlashmasi bolalar bo‘limi bazasida o‘tkazildi. Tadqiqotga nafas yo‘llari infeksiyalari (pnevmoniya, obstruktiv bronxit) tashxisi bilan statsionar davolanayotgan va kamida 3 kun davomida tizimli antibiotikoterapiya olayotgan (III–IV avlod sefalosporinlar, makrolidlar) 1 oylikdan 3 yoshgacha bo‘lgan jami 20 nafar bola jalb etildi. Barcha bemorlar antibiotik qabul qilish jarayonida oshqozon-ichak tizimi belgilari paydo bo‘lishi va enteral yallig‘lanish rivojlanishi bo‘yicha dinamik kuzatuvga olindi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari:

- Statsionar sharoitida kamida 3 kun davomida tizimli antibiotikoterapiya olayotganligi;

- Yosh chegarasi — 1 oydan 3 yoshgacha;
- Antibiotik qabul qilish fonida AAD klinik belgilari (suyuq axlat, qorin og‘rig‘i, meteorizm) paydo bo‘lishi.

Tadqiqotdan chiqarish mezonlari:

- Tadqiqotdan oldin surunkali yoki o‘tkir diareya kasalligi mavjudligi;
- Tug‘ma ichak anomaliyalari (Hirshprung kasalligi, malrotatsiya va boshqalar);
- Seliakiya, oziq-ovqat allergiyasi yoki fermentopatiya;
- Tasdiqlangan parazitar infeksiyalar (lyambliyoz, gelmintozlar);

Klinik baholash: 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda qorin og‘rig‘i va visseral bezovtalik darajasini obyektiv baholash uchun xalqaro pediatrik standart hisoblangan FLACC shkalasi (Face — yuz ifodasi, Legs — oyoqlar holati, Activity — faollik, Cry — yig‘lash, Consolability — tinchlantirish imkoniyati) qo‘llanildi [15]. Har bir ko‘rsatkich 0 dan 2 ballgacha baholanib, umumiy ball 0–10 oralig‘ida hisoblandi.

Laborator va instrumental tekshiruvlar:

Umumiy qon tahlili (neytrofil va eozinofil darajalari); Koprologik tekshiruv; Najas namunasida Clostridioides difficile A va B toksinlarini aniqlash (PCR usuli); Fekal biomarkerlar — kalprotektin va laktoferrin miqdorini o‘lchash (ELISA usuli) [4, 5].

Statistik tahlil: Olingan natijalar GraphPad Prism 9.3 va SPSS 26.0 dasturlari yordamida qayta ishlandi. Miqdoriy ko‘rsatkichlar o‘rtacha qiymat ± standart xatolik (M±m) shaklida ifodalandi. Ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik Spirman korrelyatsiya koeffitsienti (r) yordamida baholandi. Guruhlar o‘rtasidagi farqlar Mann–Whitney U testi va χ^2 testi yordamida tekshirildi. Farqlar $p < 0,05$ da statistik ishonchli deb topildi.

NATIJALAR

Immunologik skrining natijasida bolalar ikki guruhga bo‘lindi:

Cl. difficile (+) — 5 nafar (25%)

Cl. difficile (-) — 15 nafar (75%)

Cl. difficile musbat bolalarda neytrofil markerlar keskin yuqori bo‘ldi.

Jadval 1. Guruhlar bo‘yicha biomarker darajalari (M±m)

Guruh	Kalprotektin (mkg/g)	Laktoferrin (mkg/g)	FLACC balli
Cl. difficile (+) (n=5)	424,5±38,2	29,1±3,2	Yuqori
Cl. difficile (-) (n=15)	Past	Past	O‘rtacha
Sog‘lom nazorat (n=10)	Normal	Normal	Past

Statistik farq Cl. difficile musbat guruhda $p<0,01$ ni tashkil etdi. Kalprotektin bilan FLACC og‘riq ballari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlandi.

XULOSA

Olingan natijalar AAD da Clostridioides difficile ning yetakchi rolini tasdiqlaydi. Cl. difficile musbat holatlarda fekal kalprotektin va laktoferrin ning yuqori darajasi neytrofil degranulyatsiyasi va o‘tkir destruktiv yallig‘lanishni ko‘rsatadi [2, 4, 8]. Bu markerlar infeksion jarayonni boshqa sabablardan (dori enteropatiyasi) farqlashga imkon beradi. Amaliy ahamiyati: kalprotektin va laktoferrin yuqori bo‘lsa — metronidazol yoki vankomitsin tavsiya etiladi [2, 6]. Past bo‘lsa — antibiotikni to‘xtatish va probiotiklar (Bifidobacterium, Lactobacillus) samarali [3, 14]. Bu yondashuv davolashni individuallashtirishga va asoratlar xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Bolalarda AAD 25% holatda Cl. difficile bilan bog‘liq bo‘lib, unda kalprotektin va laktoferrin keskin oshadi. Fekal markerlarni birgalikda aniqlash klinik variantlarni erta farqlash va individual davolash algoritmlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Захарова И.Н., Бережная И.В., Мумладзе Э.Б. Антибиотик-ассоциированные диареи у детей: как выявить, что делать и как лечить? // Медицинский совет. 2016. № 1. С. 78-87.
- Заплатников А.Л., Захарова И.Н., Коровина Н.А. Clostridium difficile-инфекция у детей // Русский медицинский журнал. 2004. Т. 12. № 5. С. 373-376.
- Захарова И.Н., Сугян Н.Г., Бережная И.В. Нежелательные эффекты антибактериальной терапии в педиатрической практике. Роль пре- и пробиотиков в профилактике антибиотико-ассоциированной диареи // Медицинский совет. 2018. № 2. С. 189-194. DOI: 10.21518/2079-701X-2018-2-194-199.
- Zheng S., va boshq. Fecal Biomarkers in the Diagnosis and Monitoring of Intestinal Inflammation // Frontiers in Physiology. 2022;13:881816. URL: PMC
- Eosinophil Protein X (EPX), Stool - EnteroScan® - Intestinal Microbiome Tests // Diagnostiki Athinon Labs. URL: Diagnostiki
- AthinonSmith J.A., va boshq. Eosinophilic Colitis and Clostridioides difficile Sepsis With Rapid Remission After Antimicrobial Treatment: A Rare Coincidence and Its Pathogenic Implications // Journal of Pediatric Gastroenterology. 2023;76(3):312-316.
- Guarino A., Ashkenazi S., Gendrel D. va boshq. European Society for Paediatric Gastroenterology, Hepatology, and Nutrition/European Society for Paediatric Infectious Diseases Evidence-Based Guidelines for the Management of Acute Gastroenteritis in Children in Europe: Update 2021. J Pediatr Gastroenterol Nutr. 2021;72(1):144-152.

- Shane A.L., Mody R.K., Crump J.A. va boshq. 2022 Infectious Diseases Society of America (IDSA) Clinical Practice Guidelines for the Diagnosis and Management of Infectious Diarrhea. Clin Infect Dis. 2022;74(4):e1-e30.
- Rothenberg M.E., Hogan S.P. The eosinophil: New insights into its role in gastrointestinal immunology and pathology. Annu Rev Immunol. 2021;39:213-239.
- Fasano A. Intestinal permeability and its regulation by zonulin: diagnostic and therapeutic implications. Clin Gastroenterol Hepatol. 2012;10(10):1096-1100.
- Maziade P.J., va boshq. Clostridium difficile infection in children: an evolving clinical challenge. Curr Opin Infect Dis. 2015;28(5):485-490.
- Buonomo E.L., Petri W.A. Jr. The microbiota and Clostridium difficile infection in children. Microbes Infect. 2017;19(4):243-248.
- Sampson T., Mazmanian S. Control of Brain Development and State by the Microbiota. Cell. 2019;177(3):450-461.
- Hogan S.P., va boshq. Eosinophils in gastrointestinal health and disease. Mucosal Immunol. 2020;13(5):723-735.
- Merkel S., va boshq. The FLACC: a behavioral scale for scoring pain in young children. Pediatr Nurs. 1997;23(3):293-297.
- Powell N., va boshq. The mucosal immune system of the gastrointestinal tract. Gastroenterology. 2023;164(4):512-526.
- Lionetti E., Catassi C. New clues in pediatric gastroenterology: from biomarkers to clinical practice. Front Pediatr. 2023;11:110245.
- Nowak-Węgrzyn A., va boshq. Non-IgE-mediated gastrointestinal food allergies. J Allergy Clin Immunol. 2015;135(5):1114-1124.

O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: TELEMEDITSINANI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) ASOSIDA JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL-HUQUQIY MODELLARI VA ‘HEALTH IN ALL POLICIES’ YONDASHUVI

Mavlonjon Rizakulov Ravshanjon O‘g‘li

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti (TXVU),

e-mail: mavlonrizakulov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini raqamli transformatsiya qilish sharoitida telemeditsina xizmatlarini davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari yordamida joriy etishning institutsional va huquqiy jihatlarini tadqiq etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining "Health in All Policies" (Salomatlik barcha siyosatlarda) yondashuvi asosida barqaror va inklyuziv ruxsat etilgan raqamli sog‘liqni saqlash ekotizimining konseptual modelini ishlab chiqishdir. Maqolada kachestven tadqiqot usullari, tizimli yondashuv va qiyosiy-huquqiy tahlil orqali "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasi hamda sohadagi mavjud normativ-huquqiy hujjatlar (xususan, PQ-140 va PF-77) doirasida DXSHning o‘rni baholangan. Natijada, Sog‘liqni saqlash vazirligi, IT-Med, xususiy sektor va Klinik audit inspeksiyasi kabi ishtirokchilarning funksional-huquqiy majburiyatlarini aniq chegaralovchi institutsional model taklif etilgan. Ushbu model aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, chekka hududlarda sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *fanlararo tadqiqot, innovatsiya, raqamli sog‘liqni saqlash, telemeditsina, davlat-xususiy sheriklik (DXSH), davlat boshqaruvi, Health in All Policies.*

Аннотация. *В данной статье исследуются институциональные и правовые аспекты внедрения телемедицинских услуг на основе механизмов государственно-частного партнерства (ГЧП) в условиях цифровой трансформации системы здравоохранения Республики Узбекистан. Основная цель исследования – разработка концептуальной модели устойчивой и инклюзивной экосистемы цифрового здравоохранения на основе подхода Всемирной организации здравоохранения «Здоровье во всех политиках» (Health in All Policies). С использованием методов качественного исследования, системного подхода и сравнительно-правового анализа была оценена роль ГЧП в рамках реализации стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» и действующих нормативно-правовых актов в данной сфере (в частности, ПП-140 и УП-77). В результате предложена институциональная модель, четко разграничивающая функциональные и юридические обязательства таких ключевых участников, как Министерство здравоохранения, IT-Med, частный сектор и Инспекция клинического аудита. Данная модель призвана расширить доступ к качественным медицинским услугам для всех слоев населения, особенно в отдаленных регионах, и обеспечить безопасность персональных медицинских данных.*

Ключевые *слова: междисциплинарное исследование, инновации, цифровое здравоохранение, телемедицина, государственно-частное партнерство (ГЧП), государственное управление, Здоровье во всех политиках.*

Abstract. *This article examines the institutional and legal aspects of implementing telemedicine services using public-private partnership (PPP) mechanisms within the framework of the digital transformation of the healthcare system in the Republic of Uzbekistan. The primary objective of this study is to develop a conceptual model for a sustainable and inclusive digital health ecosystem, grounded in the World Health Organization's "Health in All Policies" approach. Utilizing qualitative research*

methods, systems thinking, and comparative legal analysis, the study evaluates the role of PPPs within the scope of the "Digital Uzbekistan — 2030" strategy and key national regulatory frameworks (specifically, Resolution PP-140 and Decree UP-77). Consequently, the paper proposes an institutional model that clearly delineates the functional and legal responsibilities of key stakeholders, including the Ministry of Health, IT-Med, the private sector, and the Clinical Audit Inspectorate. This model is designed to enhance equitable access to high-quality healthcare services for all population groups, particularly in rural and remote areas, while ensuring robust health data security.

Keywords: *interdisciplinary research, innovation, digital health, telemedicine, public-private partnership (PPP), public governance, Health in All Policies.*

Kirish

Dolzarbligi: Jahon miqyosida post-COVID realligi sog‘liqni saqlash tizimlarining inqirozlarga bardoshliligini oshirishda raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda ham ushbu global trendlarga hamohang ravishda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O‘zbekiston — 2030" hamda "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyalarida tibbiyot tizimini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Biroq, bu jarayonga zarur moliyaviy resurslar va nou-xaularni jalb qilish faqatgina davlat budjeti hisobidan amalga oshirilishi iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lib, xususiy sektor ishtirokini, xususan davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini keng joriy qilishni talab etadi.

Muammo: Bugungi kunda O‘zbekistonda telemeditsinani joriy etish borasida dastlabki qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, davlat boshqaruvida muayyan institutsional tarqoqlik va huquqiy bo‘shliqlar mavjud. Raqamli sog‘liqni saqlash sohasida DXSH loyihalarini tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy bazaning yo‘qligi tibbiy ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va tibbiy xizmat

ko‘rsatish sifati borasida turli xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu xatarlar, o‘z navbatida, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 3.8 – Umumiy tibbiy qamrov) ga erishish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biriga aylanib qolishi mumkin.

Maqsad va vazifalar: Tadqiqotning bosh maqsadi — O‘zbekistonda "Health in All Policies" yondashuviga tayangan holda, telemeditsina xizmatlarini DXSH asosida samarali joriy etishning yagona va barqaror institutsional-huquqiy modelini ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. O‘zbekistonda raqamli sog‘liqni saqlash va DXSH bo‘yicha mavjud qonunchilik va strategik hujjatlarni tahlil qilish;
2. Telemeditsinani DXSH doirasida moliyalashtirish va boshqarish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish;
3. "Health in All Policies" xalqaro konsepsiyasining telemeditsina ekotizimi barqarorligidagi o‘rnini baholash;
4. Raqamli tibbiyotda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi majburiyatlarni taqsimlovchi kompleks institutsional modelni ishlab chiqish.

Asosiy qism

Metodologiya: Ushbu tadqiqot fanlararo yondashuv tamoyillariga asoslangan bo‘lib, davlat boshqaruvi, yurisprudensiya va jamoat salomatligi (Public Health) kesimida olib borildi. Asosiy tadqiqot usullari sifatida normativ-huquqiy hujjatlarning sifat tahlili (qualitative analysis), qiyosiy-huquqiy tahlil hamda institutsional tuzilmalar o‘rtasidagi aloqalarni modellashtirish uchun tizimli yondashuvdan (systems thinking) foydalanildi. Xalqaro tajriba va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror hamda farmonlari amaliyot integratsiyasi nuqtai nazaridan o‘rganib chiqildi.

Tahlil va tajriba natijalari: So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish va raqamlashtirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator strategik hujjatlari qabul qilindi. Masalan, PQ-140-sonli qaror (KfW banki ishtirokida sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish loyihasi) sohaga katta miqdorda xalqaro investitsiyalar

kirib kelishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, PF-77-sonli Farmon boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida tizimli o‘zgarishlarni boshlab berdi.

Biroq, qonunchilik tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, garchi "Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida"gi qonun umumiy sohalar uchun ishlasa-da, IT-arxitektura, tibbiy platformalarning o‘zaro integratsiyasi (interoperability) va virtual makonda tibbiy xizmat sifatini nazorat qilish kabi raqamli sog‘liqni saqlashning o‘ziga xos talablari mazkur qonun hujjatlarida to‘laqonli aks etmagan.

"Health in All Policies" yondashuvini qo‘llash

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining "Health in All Policies" (Salomatlik barcha siyosatlarda) konsepsiyasi aholi salomatligi nafaqat tibbiyot vazirligi, balki ta'lim, infratuzilma, iqtisodiyot va IT kabi boshqa sohalardagi qarorlarga ham bevosita bog‘liqligini uqtiradi. Telemeditsinani joriy qilish ushbu yondashuvning yaqqol amaliyotidir. Chekka hududlarda telemeditsinaning ishlashi uchun faqatgina shifokorlar emas, balki Raqamli texnologiyalar vazirligi (optik tolali internet infratuzilmasi uchun), Energetika vazirligi (uzluksiz elektr energiyasi) hamda Ta'lim tizimi (aholining raqamli savodxonligi) faol ishtirok etishi shart. DXSH modeli aynan mana shu tarmoqlararo hamkorlikni xususiy kapital orqali tezlashtirish imkonini beradi.

Ilmiy muhokama va Model yaratish

Olib borilgan chuqur tahlillar natijasida, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan, institutsional ziddiyatlarni bartaraf etuvchi quyidagi DXSH raqamli modelini taklif etamiz. Ushbu modelda har bir subyektning vazifalari aniq belgilab berilishi loyihaning barqarorligini ta'minlaydi.

1-Jadval: Telemeditsinada DXSH ishtirokchilarining funksional va huquqiy majburiyatlari (Taklif etilayotgan model)

Ishtirokchi (Subyekt)	Funksional vazifasi	Huquqiy majburiyati	Kutilayotgan natija (KPI)

o'rganganlar. Ammo iqtisodiyot, raqamli boshqaruv va huquqiy aspektlarning klaster tizimidagi o'zaro sinergik bog'liqligi yetarlicha majmuaviy tadqiq etilmagan.

Tarmoqlararo iqtisodiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish hamda raqamli transformatsiyani boshqaruvga joriy etish metodologiyasi mukammal emas. Tadqiqotning maqsadi — raqamli transformatsiya sharoitida turizm klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni boshqarish mexanizmlarini optimallashtirish va mazkur jarayonlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi turistik tajriba tahlil qilinib, hududiy turizm klasterlarini rivojlantirishning o'ziga xos iqtisodiy-huquqiy modellari taklif etiladi.

2. USULLAR

Tadqiqot doirasida qo'yilgan masalalarni hal etish uchun iqtisodiy-statistik, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Matematik hisob-kitoblar va ularning natijalari murakkab formulalarsiz, balki mantiqiy bog'liqliklar va dinamik o'zgarish koeffitsiyentlari ko'rinishida matnga tizimli ravishda integratsiya qilindi. Bu metodologik yondashuv iqtisodiy voqelikni va huquqiy munosabatlarni bir butunlikda ko'rish imkonini beradi.

Tizimli va tarkibiy tahlil metodi yordamida turizm klasterining tarkibiy qismlari, xususan, davlat organlari, xususiy turoperatorlar, mehmonxonalar, transport logistikasi, hunarmandchilik markazlari va huquqiy regulyatorlar o'rtasidagi funksional aloqalar atroflicha tizimlashtirildi. Bu metod Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi mavjud turistik ob'ektlar o'rtasidagi institutsional uzilishlarni va tarqoqlikni bartaraf etish choralarini aniqlashga xizmat qildi. Tizimli tahlil yordamida klaster sub'ektlarining har biriga xos bo'lgan iqtisodiy manfaatlar guruhi guruhlandi.

Qiyosiy-huquqiy metod doirasida rivojlangan mamlakatlarning (masalan, Ispaniya, Fransiya, Italiya va Turkiya) turizm sohasidagi qonunchilik hujjatlari, ayniqsa klaster ishtirokchilariga beriladigan soliq, bojxona va kredit imtiyozlari mexanizmlari

chuqur o'rganildi hamda milliy qonunchilik normalari bilan qiyoslandi. Ushbu tahlil asosida xalqaro tajribadagi ilg'or huquqiy normalarni milliy qonunchilikka (xususan, "Turizm to'g'risida"gi Qonunga) moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Iqtisodiy-matematik modellashtirish jarayonida turizm infratuzilmasiga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi va klaster sub'ektlarining raqamlashtirish darajasi mustaqil omillar sifatida olindi. Ularning hududiy yalpi mahsulot o'sishiga ta'siri ko'p omilli regressiya tahlili orqali baholandi. Ma'lumotlar bazasi sifatida Davlat statistika agentligi hamda Turizm qo'mitasining so'nggi yillarga oid rasmiy statistik ko'rsatkichlari, shuningdek, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari hokimliklarining hisobotlari asos qilib olindi. To'plangan ma'lumotlar trendli va qiyosiy tahlil usullari yordamida qayta ishlandi.

3. NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar va statistik modellashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm klasterlarining iqtisodiy o'sishdagi roli ularning raqamli integratsiyalashganlik darajasiga bevosita bog'liq. Ko'p omilli tahlil natijalariga ko'ra, turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar va raqamli texnologiyalar ko'rsatkichlari iqtisodiy samaradorlik hamda hududiy aholi bandligi bilan o'ta kuchli ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligi tasdiqlandi.

Xususan, aniqlangan iqtisodiy tendensiyalarga ko'ra, turizm klasteri infratuzilmasiga kiritilgan har bir qo'shimcha bir million dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hududiy yalpi mahsulot hajmining o'rtacha uch butun yuzdan sakson to'rt milliard so'mga ko'payishiga zamin yaratadi. Bu ko'rsatkich Samarqand shahrida "Silk Road Samarkand" kabi yirik turistik markazlar barpo etilishi misolida yaqqol namoyon bo'ldi. Yirik investitsiyalar nafaqat mehmonxona biznesini, balki mahalliy oziq-ovqat sanoati, esdalik sovg'alari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini ham zanjirli ravishda harakatga keltirgan.

Shu bilan birga, klaster korxonalarining raqamlashtirish va avtomatlashtirish

koeffitsiyenti o'n foizga oshganda, boshqaruv samaradorligining yaxshilanishi va vaqt xarajatlarining qisqarishi hisobiga hududiy yalpi daromadlar o'rtacha o'n ikki milliard so'mdan ziyodroqqa o'sishi aniqlandi. Buxoro va Xiva shaharlaridagi o'rtacha va kichik mehmonxonalarda onlayn bronlash, elektron to'lov va raqamli gid xizmatlarining joriy qilinishi oqibatida ma'muriy xarajatlar keskin kamaygan va xorijiy sayyohlarning oqimi sezilarli darajada ko'paygan. Bu holat raqamli menejmentning iqtisodiyotdagi bevosita moliyaviy-sinergik samaradorligini ko'rsatadi.

Klaster komponentlarining funksional va huquqiy vazifalari hududlar kesimida o'rganilganda quyidagi muhim jihatlar aniqlandi. Davlat organlari asosan strategik rejalashtirish, transport logistikasini (masalan, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar va xalqaro aeroportlar infratuzilmasini) moliyalashtirish hamda milliy qonunlar doirasida tadbirkorlarga subsidiyalar berish vazifasini bajaradi. Turoperatorlar va xususiy agentliklar esa mijozlar bilan ishlash tizimlari hamda raqamli marketing orqali innovatsion turistik paketlarni shakllantirib, ularni xalqaro bozorda sotish bilan shug'ullanadi. Ularning faoliyati litsenziyalash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Mehmondo'stlik sektori va logistika tarmoqlari esa bevosita xizmat ko'rsatish, joylashtirish va turistlarni xavfsiz tashish majburiyatini o'z bimmalariga oladi.
Biroq, o'rganishlar hozirgi kunda turoperatorlar, transport tizimlari, hunarmandlar va mehmonxonalar o'rtasida huquqiy-shartnomaviy bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali tezkorlik bilan tuziladigan elektron shartnomalarning hamda blokcheyn tizimidagi bitimlarning huquqiy maqomi amaldagi Fuqarolik kodeksida yetarlicha qamrab olinmagan. Masalan, Xivadagi milliy hunarmandchilik mahsulotlarini xorijiy turistlarga onlayn platformalar orqali sotishda bojxona va valyuta nazorati bilan bog'liq murakkab huquqiy to'siqlar saqlanib qolmoqda. Bu esa tadbirkorlar o'rtasida yoki mijozlar bilan kelishmovchiliklar yuzaga kelganda tranzaksiya va sud xarajatlarining ortishiga olib kelmoqda.

4. MUHOKAMA

Olingan iqtisodiy va empirik natijalar turizm klasterlarini rivojlantirishda faqatgina moliyaviy resurslar yoki an'anaviy investitsion jihatlarga e'tibor qaratish yetarli emasligini tasdiqlaydi. Tadqiqot modelimizda raqamlashtirish koeffitsiyentining iqtisodiy o'sishga ko'rsatgan yuqori ta'siri boshqaruv tizimini zamonaviy innovatsiyalar asosida tashkil etish naqadar muhimligini isbotlamoqda. An'anaviy usulda boshqariladigan turizm sub'ektlari raqamli iqtisodiyot sharoitida o'z raqobatbardoshligini tezda yo'qotmoqda.

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, xususan, Ispaniya, Fransiya va Turkiya kabi turizmi rivojlangan mamlakatlarda klasterlarning muvaffaqiyati ularning tashkiliy-huquqiy maqomi qonunchilikda aniq belgilanganligi bilan izohlanadi. Ushbu mamlakatlarda turizm klasterlari soliq imtiyozlariga ega bo'lgan va mustaqil boshqaruv kengashiga ega maxsus sub'ektlar hisoblanadi. Bizning tahlillarimiz esa mamlakatimizda, xususan, Samarqand va Buxoro turizm erkin iqtisodiy zonalari faoliyatida tashkiliy-huquqiy va normativ hujjatlarda ikki xil tushunishga sabab bo'luvchi bir qator jiddiy huquqiy bo'shliqlar borligini ko'rsatdi. Birinchidan, klaster tizimi amaldagi qonunchilikda alohida yuridik shaxs yoki maxsus iqtisodiy sub'ekt sifatida e'tirof etilmagan. Buning natijasida klaster ichidagi kichik va o'rta biznes vakillariga, masalan, Buxorodagi kichik oilaviy mehmonxonalar yoki milliy taomlar markazlariga davlat tomonidan beriladigan soliq va bojxona imtiyozlarini adolatli hamda mutanosib taqsimlashda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Imtiyozlar ko'pincha faqat yirik investorlarga nasib etmoqda, bu esa klasterning ichki ekotizimida tengsizlikni keltirib chiqaradi va kichik tadbirkorlarning motivatsiyasini tushiradi.

Ikkinchidan, raqamli muhitda faoliyat yuritishning huquqiy kafolatlari mukammal emas. Turistlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, kiberxavfsizlik normalari hamda elektron turistik vaucherlarni erkin muomalaga kiritish mexanizmlari xalqaro

standartlarga, xususan, Yevropa Ittifoqining ma'lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti (GDPR) talablariga to'liq moslashtirilmagan. Samarqand yoki Xivaga kelgan xorijiy sayyohlar mahalliy raqamli ilovalardan foydalanganda ularning maxfiylik huquqlari kafolati qonuniy jihatdan mukammal himoya qilinishi shart, aks holda bu xalqaro miqyosda mamlakat imijiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Boshqaruv samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan, davlat va xususiy sektor sherikligi modellarini klaster boshqaruv kengashlariga kengroq tatbiq etish lozim. An'anaviy, ya'ni faqat davlat buyrug'iga yoki ma'muriyatchilikka asoslangan markazlashgan boshqaruvdan voz kechib, tarmoqlangan raqamli boshqaruvga (decentralized management) o'tish operatsion xarajatlarni taxminan yigirma foizgacha qisqartirish imkonini beradi. Bu esa xizmatlar tannarxining pasayishiga, raqamli platformalar orqali vositachilar xarajatlarini cheklashga va hududiy turizm brendining xalqaro maydondagi jozibadorligi oshishiga bevosita xizmat qiladi.

XULOSA. Iqtisodiyot, boshqaruv, turizm va huquqiy tadqiqotlar kesishmasida olib borilgan ushbu ilmiy izlanish raqamli davrda mamlakatimiz turizm sanoatini rivojlantirishning majmuaviy va integratsiyalashgan konsepsiyasini taqdim etadi. Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida o'rganilgan empirik holatlar asosida quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:
Iqtisodiy jihatdan, turizm klasterlariga yo'naltirilgan investitsiyalar yuqori multiplikativ samaraga ega ekanligi isbotlandi. Hukumat nafaqat yirik zamonaviy mehmonxonalar qurishga, balki klaster tarkibidagi kichik xizmat ko'rsatish ob'ektlari, tarixiy obidalar atrofidagi infratuzilma, hunarmandchilik ustaxonalari va mahalliy ekologik transport tarmoqlarining hamohang rivojlanishiga investitsiya kiritishi lozim. Bu yondashuv hududiy yalpi mahsulotning barqaror o'sishini va yangi ish o'rinlari yaratilishini ta'minlaydi.

Boshqaruv jihatdan, eskirgan ma'muriy buyruqbozlik usullaridan butunlay voz kechib, klasterni yagona raqamli ekotizim, ya'ni bitta oynali onlayn platformalar va

sun'iy intellekt texnologiyalari orqali boshqarish tizimini joriy etish zarur. Ushbu platformalar logistika, mehmonxonalar bandligi, muzeylar chiptalari va turistlar xavfsizligini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini berishi kerak.

Huquqiy jihatdan, amaldagi "Turizm to'g'risida"gi Qonunga hamda Fuqarolik kodeksiga "Turistik klaster", "Elektron turistik shartnoma" yoki "Smart-kontrakt" hamda "Raqamli turistik ekotizim sub'ektlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi va majburiyatlari" kabi zamonaviy tushunchalarni va ularni amaliyotda qo'llash normalarini qonuniy kuch sifatida kiritish dolzarb zaruriyat hisoblanadi. Shuningdek, klaster ishtirokchilari o'rtasida soliq imtiyozlarini teng taqsimlashning huquqiy mexanizmi ishlab chiqilishi shart.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ushbu tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy tavsiyalarning amaliyotga izchil tatbiq etilishi milliy turizm sanoatining xalqaro maydondagi jozibadorligini tubdan oshirishga va O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 76(6), 77-90.

2. Hall, C. M. (2008). Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. Pearson Education.

3. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. Rasmiy manba.

4. Buhalis, D. (2020). Technology in Tourism-Strategic and Operational Implications. International Journal of Tourism Research, 22(1), 1-12. [20.07.2026 15:58] Tamara Singiljonim:

5. World Tourism Organization (UNWTO). (2025). International Tourism Highlights. UNWTO Publications.

6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Rasmiy sharhlar va normativ hujjatlar to'plami.

ИНФЛЯЦИОН ТАРГЕТЛАШ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА МОНЕТАР МЕХАНИЗМЛАР ВА ИНФЛЯЦИЯНИ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИ

Абдурахмонов Мирзабек Мардон ўғли

Ўзбекистон Республикаси банк-молия академияси

e-mail: abduraxmonovmirzabek92@gmail.com

Аннотация. *Мазкур тезисда инфляцион таргетлашнинг назарий асослари, монетар трансмиссия каналлари ҳамда халқаро тажриба ёритилган. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2020–2026 йиллардаги монетар сиёсат амалиёти, асосий ставка ва инфляция динамикаси таҳлил қилинган. Тадқиқот якунида инфляцион таргетга барқарор эришиш учун фискал-монетар мувофиқлаштиришни кучайтириш, молия бозорини чуқурлаштириш ва коммуникация сиёсатини такомиллаштиришга қаратилган амалий таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *инфляцион таргетлаш, монетар трансмиссия механизми, асосий ставка, нархлар барқарорлиги, инфляцион кутилмалар, Марказий банк, фискал устунлик, пул-кредит сиёсати.*

Аннотация. *В работе раскрыты теоретические основы инфляционного таргетирования, каналы монетарной трансмиссии и международный опыт. Проанализирована практика денежно-кредитной политики Центрального банка Республики Узбекистан за 2020–2026 годы, динамика базовой ставки и инфляции. По итогам исследования разработаны практические рекомендации по усилению координации фискальной и монетарной политики, углублению*

финансового рынка и совершенствованию коммуникационной политики для устойчивого достижения инфляционного таргета.

Ключевые слова: *инфляционное таргетирование, механизм монетарной трансмиссии, базовая ставка, стабильность цен, инфляционные ожидания, центральный банк, фискальное доминирование, денежно-кредитная политика.*

Abstract. *The study covers the theoretical foundations of inflation targeting, monetary transmission channels, and international experience. It analyzes the monetary policy practice of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan during 2020–2026, including the dynamics of the policy rate and inflation. Based on the findings, practical recommendations are developed to strengthen fiscal-monetary coordination, deepen the financial market, and improve communication policy for sustainably achieving the inflation target.*

Keywords*: inflation targeting, monetary transmission mechanism, policy rate, price stability, inflation expectations, central bank, fiscal dominance, monetary policy.*

Мавзунинг долзарблиги. Нархлар барқарорлигини таъминлаш ҳар қандай Марказий банкнинг асосий мақсади ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки 2020 йилдан бошлаб инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш жараёнини амалга оширмоқда, мақсад — 2027 йилга бориб инфляцияни барқарор равишда 5 фоиз даражасига туширишдир. 2026 йил июнь ойи ҳолатига умумий инфляция йиллик ҳисобда 6,4 фоизни, базавий инфляция эса 5,7 фоизни ташкил этди, бу эса таргетга нисбатан ҳамон фарқ мавжудлигини кўрсатади. Шу боис монетар трансмиссия механизмларининг самарадорлигини ошириш масаласи долзарб илмий-амалий аҳамият касб этади.

Тадқиқотнинг мақсади — инфляцион таргетлаш сиёсатини амалга оширишда монетар механизмларнинг ўзига хос хусусиятларини очиб бериш

ҳамда уларнинг Ўзбекистонда инфляцияни барқарорлаштиришдаги самарадорлигини баҳолаш асосида амалий таклифлар ишлаб чиқишдан иборат. Вазифалар: инфляцион таргетлашнинг назарий асосларини очиб бериш; монетар трансмиссия каналларини тавсифлаш; Ўзбекистон Республикаси Марказий банки инструментлари ва 2020–2026 йиллардаги инфляция динамикасини таҳлил қилиш; самарадорликни ошириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.

Тадқиқот методологияси сифатида статистик таҳлил, қиёсий таҳлил ва мантиқий умумлаштириш усулларидан фойдаланилди. Тадқиқот базасини Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, Давлат статистика қўмитаси ҳамда халқаро молия ташкилотларининг расмий маълумотлари ташкил этди.

Инфляцион таргетлаш — марказий банк томонидан олдиндан эълон қилинган инфляция даражасига (таргетга) эришишни назарда тутувчи монетар режим бўлиб, 1990 йилда Янги Зеландияда биринчи бор жорий этилган ва кейинчалик кўплаб ривожланган ҳамда ривожланаётган мамлакатларда қўлланилган. Унинг асосий белгилари: нархлар барқарорлигининг устувор мақсад сифатида институционаллашуви, инфляциянинг миқдорий эълон қилиниши, асосий ставкага асосланган қарорлар қабул қилиш ҳамда юқори шаффофлик ва ҳисобдорлик.

Монетар трансмиссия механизми — асосий ставканинг реал иқтисодиёт ва инфляцияга таъсир этиш жараёнлари йиғиндиси бўлиб, қуйидаги каналлар орқали амалга оширилади: фоиз ставкаси канали (кредит ресурслари нархи орқали талабга таъсир), кредит канали (банк тизимининг кредит бериш салоҳияти орқали), валюта курси канали (импорт нархлари орқали), активлар нархи канали ва кутилмалар канали (жамоатчилик прогнозларини шакллантириш орқали). Ривожланаётган иқтисодиётларда, жумладан Ўзбекистонда, кутилмалар канали

ҳали тўлиқ шаклланмаган — аҳоли ва тадбиркорларнинг инфляцион кутилмалари расмий прогнозлардан юқори даражада шаклланмоқда.

Буюк Британия ва Канада тажрибаси Марказий банк мустақиллиги ва сиёсий консенсуснинг аҳамиятини кўрсатади. Бразилия, Чили, Польша ва айниқса Марказий Осиё минтақасидаги Қозоғистон тажрибаси — юқори долларлашув, фискал устунлик ва саёз молия бозори каби ўхшаш муаммоларни намойиш этади. Қозоғистон Миллий банки 2015 йилда эркин сузувчи курс ва инфляцион таргетлашга ўтгач, дастлаб юқори тебранишлар кузатилган бўлса-да, кейинчалик асосий ставка сиёсати ва коммуникацияни такомиллаштириш ҳисобига инфляция бир хонали кўрсаткичларга туширилган — бу Ўзбекистон учун муҳим методологик сабоқ беради.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки 2020 йилдан бошлаб инфляцион таргетлашга босқичма-босқич ўтмоқда. Асосий инструмент — йилига саккиз марта кўриб чиқиладиган асосий (базавий) ставка ҳисобланади. 2026 йил 17 июнь ҳолатига Марказий банк Бошқаруви асосий ставкани 14 фоиз даражасида сақлаб қолди, сабаби — юқори ички талаб ва ташқи инфляцион хатарлар. Қўшимча инструментлар: очиқ бозор операциялари (репо/тескари репо), мажбурий захира талаблари, Марказий банк облигациялари ва валюта бозоридаги интервенциялар.

2020–2022 йилларда инфляция икки хонали кўрсаткичларда сақланган, 2023–2025 йилларда қатъий монетар сиёсат натижасида пасайиш тенденцияси кузатилди. 2026 йил июнь ҳолатига умумий инфляция 6,4 фоиз, базавий инфляция 5,7 фоиз, йил якунида эса 6,5 фоиз кутилмоқда.

1-жадвал. Асосий ставка ва инфляция динамикаси (2020–2026 йй.), %

Йил	Асосий ставка	Умумий инфляция	Базавий инфляция

2020	14,0	11,1	—
2022	16,0	12,3	—
2024	13,5–14,0	9,8	—
2026 (июнь)	14,0	6,4	5,7
2026 (прогноз)	14,0	~6,5	—

Манба: cbu.uz расмий маълумотлари асосида

Жадвал маълумотлари шуни кўрсатадики, асосий ставканинг узоқ муддат юқори сақланиши инфляциянинг босқичма-босқич пасайишига хизмат қилган, бироқ таргетга нисбатан фарқ (1,4 фоиз) ҳамон сақланмоқда. Валюта курси канали нисбатан яхши ишлаётган бўлса, кутилмалар ва фоиз ставкаси каналлари ҳали тўлиқ шаклланмаган.

Инфляцион таргетлашга ўтиш инфляциянинг икки хонали даражадан бир хонали даражага пасайиши, Марказий банк қарорларининг шаффофлашуви ва башоратланувчанлигининг ошиши каби ижобий натижаларга эга бўлди. Шу билан бирга, фискал устунлик, кутилмаларнинг етарли якорланмаганлиги *(ишончли шаклланмаганлиги)* ва молия бозорининг саёзлиги самарадорликни чекламоқда.

Таҳлил натижасида қуйидаги муаммолар аниқланди: фискал устунлик (давлат харажатлари ва субсидияларнинг юқорилиги); инфляцион кутилмаларнинг етарли якорланмаганлиги; молия бозорининг саёзлиги (узоқ муддатли қимматли қоғозлар бозорининг ривожланмаганлиги); таклиф томонидаги шоклар (озиқ-овқат нархлари, маъмурий тартибга солинадиган нархлар); ташқи омиллар (олтин нархи, савдо ҳамкорлари валюталарининг мустаҳкамланиши).

Қозоғистон, Польша ва Чили тажрибасини қиёсий таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, инфляцион таргетлашнинг муваффақияти учта устун асосида қурилади: Марказий банкнинг институционал ва операцион мустақиллиги, фискал сиёсат билан узвий мувофиқлаштириш, ҳамда жамоатчилик билан доимий ва тушунарли коммуникация. Хусусан, Польша Миллий банки инфляция бўйича ҳар чоракда батафсил прогноз ҳужжатини эълон қилиш амалиётини жорий этиб, бозор иштирокчилари кутилмаларини самарали якорлаган. Чили тажрибаси эса фискал қоидаларнинг монетар сиёсат билан уйғунлаштирилиши инфляцион барқарорликка қандай ижобий таъсир кўрсатишини намойиш этади.

Хорижий тажриба ва ўтказилган таҳлил асосида қуйидаги амалий таклифлар ишлаб чиқилди:

1) Марказий банк прогнозларини ойлик асосда, кенг жамоатчилик учун тушунарли шаклда эълон қилиш тизимини жорий этиш;

2) Молия вазирлиги билан доимий асосда ишлайдиган мувофиқлаштирувчи кенгаш фаолиятини институционаллаштириш;
3) Маъмурий тартибга солинадиган нархларни таргет билан уйғунлаштирилган, олдиндан башоратланадиган индексация тизимига ўтказиш;

4) Ички давлат қимматли қоғозлар бозорини, айниқса узоқ муддатли сегментини ривожлантириш орқали доходлилик эгри чизиғини шакллантириш;

5) Аҳоли ва тадбиркорлар ўртасида молиявий-иқтисодий саводхонликни ошириш дастурларини кенгайтириш, бу инфляцион кутилмалар каналининг узоқ муддатли самарадорлигини таъминлайди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб қуйидаги хулосаларга келинди: инфляцион таргетлаш режими нархлар барқарорлигини таъминлашнинг самарали воситаси бўлиб, унинг муваффақияти Марказий банк мустақиллиги, фискал интизом ва

шаффоф коммуникацияга боғлиқ. Ўзбекистонда 2020 йилдан бошланган ушбу жараён инфляциянинг бир хонали даражага тушишига хизмат қилди, бироқ 2026 йил июнь ҳолатига 6,4 фоизлик кўрсаткич 5 фоизлик таргетдан ҳамон юқори. Трансмиссия каналларининг барчаси бир хил самарадорлик билан ишламаяпти — валюта курси канали нисбатан яхши ишласа, кутилмалар ва фоиз ставкаси каналлари кучайтиришни талаб қилади. Таргетга барқарор эришиш учун фискал-монетар мувофиқлаштириш, молия бозорини чуқурлаштириш ва коммуникация сиёсатини такомиллаштириш зарур. Ишлаб чиқилган таклифлар Марказий банк ва тегишли давлат идоралари томонидан амалиётда қўлланилиши мумкин. Хулоса ва таклифларнинг амалиётга жорий этилиши Ўзбекистонда нархлар барқарорлигини таъминлаш, аҳоли турмуш даражасини ошириш ва инвестиция муҳитини янада яхшилаш учун муҳим замин яратади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий сайти. — URL: https://cbu.uz

2. Пул-кредит сиёсатининг 2026 йил ва 2027–2028 йиллар даврига мўлжалланган асосий йўналишлари. — Тошкент, Ўзбекистон Республикаси МБ, 2024.

3. Mishkin F. S. Inflation Targeting: Lessons from the International Experience. — Princeton University Press, 1999.

4. Svensson L. E. O. Inflation Targeting as a Monetary Policy Rule // Journal of Monetary Economics, 1999.

5. Қозоғистон Республикаси Миллий банкининг расмий маълумотлари. — URL: https://nationalbank.kz

6. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. — URL: https://stat.uz

7. IMF Article IV Consultation Reports: Uzbekistan, 2023–2025.

MINTAQADA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA MAKROIQTISODIY SIYOSAT USULLARI

Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti

e-mail: mashhura.r@urdu.uz

ORCID: 0009-0005-4387-2049

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqada eksportni rivojlantirishda makroiqtisodiy siyosatning ahamiyati va uning asosiy usullari tahlil qilingan. Byudjet-soliq, pul-kredit, tashqi savdo siyosati va investitsion siyosatning eksport salohiyatini rag‘batlantirishdagi o‘rni ochib berilgan, jumladan, soliq imtiyozlari, past foizli kreditlar, eksportni moliyalashtirish instrumentlari orqali eksport hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va kambag‘allikni qisqartirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *eksport, makroiqtisodiy siyosat, fiskal siyosat, monetar siyosat, investitsiya, tashqi savdo, kambag‘allikni qisqartirish, mintaqaviy rivojlanish.*

Аннотация*.В данной статье проанализированы значение макроэкономической политики и её основные методы в развитии экспорта на региональном уровне. Раскрыта роль бюджетно-налоговой, денежно-кредитной, внешнеторговой и инвестиционной политики в стимулировании экспортного потенциала. В частности, рассмотрено значение налоговых льгот, льготных кредитов и инструментов финансирования экспорта для увеличения объёмов экспорта, создания новых рабочих мест и сокращения бедности.*

Ключевые слова: *экспорт, макроэкономическая политика, фискальная политика, монетарная политика, инвестиции, внешняя торговля, сокращение бедности, региональное развитие.*

Abstract. *This article analyzes the importance of macroeconomic policy and its main instruments in developing regional exports. The role of fiscal, monetary, trade, and investment policies in promoting export potential is revealed. In particular, the study examines the significance of tax incentives, low-interest loans, and export financing instruments in increasing export volumes, creating new jobs, and reducing poverty.*

Keywords*: export, macroeconomic policy, fiscal policy, monetary policy, investment, foreign trade, poverty reduction, regional development.*

KIRISH

Mintaqada eksport salohiyati iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri bo‘lib, u nafaqat tashqi savdo balansini yaxshilash, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, kambag‘allikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirishda ham muhim omildir. Shu bois, mintaqaviy darajada eksportni rivojlantirishni ta’minlovchi samarali makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Makroiqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari — fiskal (byudjet-soliq), (monetar) pul-kredit, investitsiya va tashqi savdo siyosati esa eksport faoliyatini rag‘batlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Davlat tomonidan eksportyor korxonalarga berilayotgan soliq imtiyozlari, past foizli kreditlar, eksportni moliyalashtirish va sug‘urtalash mexanizmlari eksport hajmini oshirish hamda mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, eksportni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosatning Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya va Turkiya kabi mamlakatlar tajribasi mintaqani kompleks rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Mamlakatlarning makroiqtisodiy siyosati takomillashtirishda xorijiy tarjibalar orqali aniq yo‘nalish va strategiyalar belgilab olinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy eksport salohiyatini rivojlantirishda makroiqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlari — fiskal barqarorlikni ta’minlash, milliy valyuta kursini maqbullashtirish, kredit-moliya siyosatini soddalashtirish va tashqi savdo infratuzilmasini modernizatsiya qilish bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturida eksportni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Ushbu strategiyalar doirasida eksport qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari, bojxona jarayonlarini soddalashtirish hamda eksport kreditlarini kafolatlash mexanizmlari joriy etilgan. Shuningdek foiz stavkasining pasaytirilishini ish o‘rinlari yaratilishi, eksport hajmi yoki soliq tushumlari oshishi kabi aniq natijalar ko‘zlangan.

Fiskal siyosatning eksportga ta’siri, avvalo, soliq yukini kamaytirish va davlat moliyaviy instrumentlarini kuchaytirish orqali namoyon bo‘ladi. Eksportchi korxonalarga berilayotgan soliq imtiyozlari, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilish, foyda solig‘ini kamaytirish va bojxona to‘lovlarini soddalashtirish ularning ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu bilan birga, davlat byudjeti hisobidan eksportni subsidiyalash ham eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, oxirgi yillarda mintaqalarda eksport qiluvchi korxonalar sonining ortishi va ularning yangi tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengaygani kuzatilmoqda.

Bu esa bandlik darajasining ko‘tarilishi va aholi daromadlarining oshishiga olib kelmoqda.

Eksport faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklari tomonidan past foizli kreditlar ajratilishi, eksport sug‘urtasi tizimining kengaytirilishi muhim ahamiyatga ega. Jumladan, tijorat banklari tomonidan eksportchilar uchun maxsus kredit liniyalari va kafolat mexanizmlari joriy etilgan. Bu esa eksport hajmini oshirishga, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini kengaytirishga yordam beradi.

O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2025-yil yakuniga ko‘ra 81,2 mlrd AQSH dollariga teng bo‘lgan va 2024-yilga nisbatan 13 928,4 mln AQSH dollariga yoki 20,7 foizga ko‘paygan. Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi o‘tgan yilga nisbatan 33 812,3 mln AQSH dollariga yoki 24,0 foizga ortgan, bu o‘sish asosan hududiy sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi va qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda xalqaro xizmatlar hisobiga ta’minlangan [2].

Eksportni qo‘llab-quvvatlashda tashqi savdo siyosatining muhim jihatlaridan biri bu – erkin savdo sharoitlarini yaratishdir. Bojxona jarayonlarini soddalashtirish, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar sertifikatlash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, yangi eksport bozorlarini o‘zlashtirish tashqi savdo siyosatining asosiy yo‘nalishlaridir.

Mintaqaviy darajada erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ularni eksport markazlariga aylantirish amaliyoti samarali natijalar bermoqda. Xususan, “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Namangan” va “Angren” kabi erkin iqtisodiy zonalar eksportchi korxonalar uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Xalqaro valyuta fondining tadqiqotlariga ko‘ra, eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va mintaqalarda yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi [3]. Ayniqsa, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi siyosatlar — inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish, foiz stavkalarini

maqbullashtirish va davlat investitsiyalarini samarali yo‘naltirish orqali eksportni qo‘llab-quvvatlaydi.

OECD hisobotlarida qayd etilishicha, eksport siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, logistika tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish zarur [4].

Krugman va Obstfeldning xalqaro iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha asarlarida qayd etilganidek, eksport iqtisodiyotning “drayver” omillaridan biri bo‘lib, u milliy daromad va bandlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [5]. Shu jihatdan, O‘zbekiston sharoitida ham mintaqaviy ishlab chiqarish klasterlarini yaratish, qo‘shilgan qiymat zanjirlarini kengaytirish va eksportni diversifikatsiya qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo davlatlarida eksport raqobatbardoshligini oshirish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish samarali natijalar bermoqda [6]. Shu bois, O‘zbekiston hududlarida ham eksportchi korxonalar uchun kredit kafolatlari, subsidiyalar va bojxona imtiyozlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi, zamonaviy texnologiyalar joriy etiladi va mahsulot sifati yaxshilanadi.

Umuman olganda, mintaqaviy eksportni rivojlantirishda makroiqtisodiy siyosatning kompleks yondashuvi — ya’ni fiskal, monetar va tashqi savdo siyosatlarining uyg‘unlashuvi iqtisodiy o‘sishning barqaror manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston uchun ushbu tajribalar mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xorij bozorlariga muvaffaqiyatli chiqarish yo‘lida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

TAKLIF VA XULOSA

O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiyoti uchun eksportni rivojlantirish strategik ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Eksport hajmini oshirish, tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini kengaytirish iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish hamda tashqi savdo balansini yaxshilashga xizmat qiladi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, makroiqtisodiy siyosat vositalarining uyg‘un qo‘llanilishi eksportni rag‘batlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Eksportni rivojlantirishda makroiqtisodiy siyosat vositalarining o‘zaro uyg‘unligi — barqaror iqtisodiy o‘sishning asosi hisoblanadi. Valyuta, fiskal, monetar va savdo siyosatlarining muvofiqlashtirilgan tarzda olib borilishi mintaqaviy ishlab chiqarish salohiyatini to‘liq ishga solish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirishga imkon yaratadi.

Shuningdek, eksport tarkibining diversifikatsiyalanishi, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish ulushining ortishi va logistika tizimining raqamlashtirilishi mintaqaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, eksportni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan kompleks makroiqtisodiy siyosat nafaqat tashqi savdo balansini yaxshilaydi, balki investitsion muhitni ham mustahkamlaydi. Shu bois, mintaqada eksportni rivojlantirish jarayonida davlat organlari, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risidagi farmoni. PF-22-son Farmon, 2026-yil 16-fevral. – URL: https://lex.uz/docs/-8050787

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Tashqi savdo aylanmasi. – URL: https://stat.uz/img/news/press-reliz-uzb_p47043.pdf

3. International Monetary Fund. Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia. – Washington, DC: IMF, 2024. – URL: https://www.imf.org/en/Publications/REO (murojaat qilingan sana: 23.07.2026).

4. OECD. Boosting the Internationalisation of Firms through Better Export Promotion Policies in Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2022. – URL: https://www.oecd.org (murojaat qilingan sana: 23.07.2026).

5. Krugman P.R., Obstfeld M., Melitz M.J. International Economics: Theory and Policy. – 12th ed. – Harlow: Pearson Education, 2022. – 800 p.

6. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2024. – Manila: Asian Development Bank, 2024. – URL: https://www.adb.org/publications/asian-development-outlook-2024 (murojaat qilingan sana: 23.07.2026).

7. ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ И ФИЛОЛОГИЯ

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Хаятов Адхам Музафарович

Учитель английского языка частной школы

«INTERNATIONAL GOLDSTARS SCHOOL»

Аннотация : *В данной статье рассмотрены несколько эффективных методов обучения английскому языку, а также современные образовательные технологии, применяемые в процессе изучения языка.*

Аннотация: *Ушбу мақолада инглиз тилини ўқитишнинг бир нечта самарали усуллари, шунингдек, тил ўрганиш жараёнида қўлланиладиган замонавий таълим технологиялари кўриб чиқилган.*

Abstract: *This article examines several effective methods of teaching English as well as modern educational technologies used in the process of English language learning.*

Ключевые слова: *язык, английский язык, самостоятельное изучение языка, образовательные технологии, проект, интерес, активность, интерактивные методы.*

Калит сўзлар*: тил, инглиз тили, тилни мустақил ўрганиш, таълим технологиялари, лойиҳа, қизиқиш, фаоллик, интерфаол методлар.*

Keywords: *language, English language, independent language learning, educational technologies, project, interest, activity, interactive methods.*

В Узбекистане преподавание английского языка закреплено как государственный приоритет. Основные требования определены Законом «Об

Образовании», Конституцией, а также рядом ключевых постановлений Президента, регламентирующих непрерывное обучение, начиная с 1-го класса школ и заканчивая требованиями к госслужащим.

1.Закон Республики Узбекистан «Об образовании» (ЗРУ-637) Закрепляет право граждан на выбор языка обучения и устанавливает, что государство гарантирует изучение иностранных языков (в частности, английского) в рамках государственных образовательных стандартов на всех ступенях обучения. [9]

2.Постановление Президента от 10.12.2012 г. № ПП-1875 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков» Стало основополагающим документом, который ввел поэтапное обязательное изучение английского языка **с первых классов** общеобразовательных школ по всей территории республики.[10]

3.Постановление Президента от 19.05.2021 г. № ПП-5117 “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан. Постановление подняло популяризацию иностранных языков на качественно новый уровень, учредив при Кабинете Министров соответствующее Агентство по популяризации изучения иностранных языков.[11]

В рамках реализации Закона Республики Узбекистан «Об образовании» и Национальной программы по подготовке кадров в стране создана комплексная система обучения иностранным языкам, направленная на формирование гармонично развитого, высокообразованного, современно мыслящего

[9] Закон Республики Узбекистан «Об образовании» (ЗРУ-637)от 23.09.2020 г.
[10] Постановление Президента от 10.12.2012 г. № ПП-1875 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков»
[11] Постановление Президента от 19.05.2021 г. № ПП-5117 “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан

подрастающего поколения, дальнейшую интеграцию республики в мировое сообщество.

Вместе с тем анализ действующей системы организации изучения иностранных языков показывает, что образовательные стандарты, учебные программы и учебники надо более совершенствоват, чтоб они в полной мере соответствовали современным требованиям, особенно в части использования передовых информационных и медиа-технологий.

Сегодня основное внимание уделяется ученикам, его личности и внутреннему миру. Поэтому главной задачей современного учителя является выбор таких методов и форм организации учебной деятельности, которые в наибольшей степени соответствуют целям личностного развития обучающихся.

В последние годы в школах Узбекистана всё больше внимания уделяется использованию новых информационных технологий. Речь идёт не только о новых технических средствах, но и о новых формах и методах обучения, а также о новом подходе к организации образовательного процесса.

Главной целью обучения иностранным языкам является формирование иноязычной коммуникативной компетенции. Это способность и реальная готовность человека понимать чужую речь и осуществлять полноценное общение с носителями другого языка, учитывая их культурные особенности и социальные нормы.[12]

Задача каждого учителя английского языка - создать условия, при которых каждый обучающийся сможет практически овладеть языком, а также выбрать такие методы обучения, которые позволят каждому ученику проявить свою активность и творческие способности. Преподаватель должен активизировать познавательную деятельность учащихся в процессе изучения иностранного

[12] Мильруд Р.П., Матиенко А.В. Альтернативное тестирование коммуникативной компетенции учащихся // Английский язык в школе, 2007. № 1. С. 4.

языка. Для достижения цели преподаватель должен работать над собой и развить навыки и умения преподавание языка.

Процесс обучения иностранному языку является сложной, постоянно развивающейся системой. Компьютеризация обучения иностранному языку облегчает доступ к информации и сокращает время изучения языка. На данный момент существует огромный выбор мультимедиа-продуктов, Интернет-страничек, содержащих информацию, необходимую для изучения иностранного языка, электронных учебников, электронных словарей и энциклопедий, баз данных с тематическими текстами и упражнениями. Необходимо отметить, что существует множество мнений о том, как использовать компьютер в обучении иностранному языку. Многие методисты (как наши, так и зарубежные) сходятся на том, что компьютерные технологии не являются новыми методами в обучении, это вспомогательные средства для более качественного изучения иностранного языка, это инструмент, который помогает преподавателям усовершенствовать процесс приобретения знаний[13]

Современные педагогические технологии, такие как обучение в сотрудничестве, метод проектов, использование новых информационных технологий и интернет-ресурсов, способствуют реализации личностно ориентированного подхода в обучении, обеспечивая индивидуализацию и дифференциацию обучения с учётом способностей и уровня подготовки учащихся.

Использование компьютерных обучающих программ на уроках иностранного языка включает:

-пополнение словарного запаса;

-отработку произношения;

[13] ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ОБУЧАЮЩИХ ПРОГРАММ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ. Преподаватель И.В. Редько Кубанский государственный университет физической культуры, спорта и туризма, г. Краснодар.
ispolzovanie-kompyuternyh-obuchayusch-ih-programm Интернет источник. обращения 2026г.15 июня

-обучение диалогу и монологу;

-обучение правописанию;

-освоение грамматически языка.

Настоящее время возможности использования интернет-ресурсов чрезвычайно широки. Глобальная сеть Интернет предоставляет учащимся и преподавателям доступ к любой необходимой информации независимо от их местонахождения: географическим материалам, новостям из жизни молодёжи, статьям из газет и журналов и многому другому.

На уроках английского языка Интернет позволяет решать целый ряд дидактических задач:

-формировать навыки чтения на основе материалов глобальной сети;

-развивать письменную речь учащихся;

-обогащать словарный запас;

-повышать мотивацию к изучению английского языка.

Кроме того, использование интернет-технологий способствует расширению кругозора школьников, установлению и поддержанию деловых контактов и общения со сверстниками из англоязычных стран.

Ученики могут принимать участие в онлайн-тестах, викторинах, конкурсах и олимпиадах, переписываться со сверстниками из других стран, участвовать в чатах, видеоконференциях и других формах общения.

Они также получают возможность собирать информацию по проблемам, над которыми работают в рамках своих проектов.

Массовая компьютеризация обусловлена тем, что современный компьютер является эффективным средством оптимизации интеллектуального труда практически во всех его проявлениях.

Особенность компьютера как средства обучения заключается в его нейтральности. Машина может поддерживать дружелюбное взаимодействие с

пользователем, «поддерживать» его, но никогда не проявляет раздражения и не вызывает чувства скуки. Именно поэтому использование компьютеров особенно эффективно для индивидуализации отдельных аспектов обучения.

Главной целью изучения иностранного языка в школе является формирование коммуникативной компетенции. Все остальные цели обучения — образовательные, воспитательные и развивающие — реализуются в процессе достижения этой основной цели.

Коммуникативный подход предполагает обучение общению и формирование способности к межкультурному взаимодействию, которое лежит в основе интернет-коммуникации. Интернет представляет собой международное многонациональное и межкультурное сообщество, существующее благодаря электронному общению миллионов людей по всему миру. Использование Интернета на уроках иностранного языка позволяет моделировать реальную языковую среду.

Сегодня приоритетное значение имеют такие принципы, как коммуникация, интерактивность, аутентичность общения, изучение языка в культурном контексте, автономность обучения и гуманистический подход. Эти принципы способствуют развитию межкультурной компетенции как составной части коммуникативной компетентности.

Конечной целью обучения иностранным языкам является формирование способности свободно ориентироваться в иноязычной среде и адекватно реагировать в различных коммуникативных ситуациях.

Новые методы обучения с использованием интернет-ресурсов дополняют традиционные подходы к преподаванию иностранных языков. Для эффективного обучения необходимо создавать реальные жизненные ситуации общения, которые мотивируют учащихся к изучению языка и формируют адекватное

коммуникативное поведение. Современные технологии, особенно Интернет, помогают реализовать этот принцип.

Коммуникативный подход направлен на осознанное усвоение материала и развитие психологической и языковой готовности к общению. Интернет значительно облегчает реализацию данного подхода. Коммуникативные задания предполагают обсуждение проблемы или вопроса, при котором учащиеся не только обмениваются информацией, но и оценивают её.

Главной особенностью такого подхода является то, что учащиеся самостоятельно выбирают языковые средства для выражения собственных мыслей. Использование Интернета в рамках коммуникативного подхода эффективно повышает интерес к изучению иностранного языка за счёт накопления новых знаний и опыта.

2. Ахмедова Т. Б. Обучение иностранным языкам с помощью социальных сетей // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. 2024. С. 187–191. DOI: 10.5281/zenodo.14435674.

3. Дрейфельд О. В. Функциональные возможности социальных сетей в обучении русскому языку как иностранному // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2024. № 3 (233). С. 84–92. DOI: 10.23951/1609-624X-2024-3-84-92.

4. Кудбиева Н. А. Концептуальная модель смешанного обучения русскому языку как иностранному для сельских школ Республики Узбекистан. 2025.

5. Романтовский А. В. Использование социальных сетей как актуальный вектор развития системы подготовки иностранных студентов по русскому языку.

6. Ташева У. Т. Интерактивные методы обучения русскому языку как иностранному.

7. Шакирова Г. Р. Основные проблемы преподавания русского языка как иностранного в неязыковой среде // Modern Science and Research. 2023. Т. 2. № 11. С. 845–848.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING FANLARARO INTEGRATIV RIVOJLANISHINI TA'MINLASH TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Abduraufova Umida Isamiddin qizi
e-mail: umidaisamiddinova@icloud.com

Anotatsiya. *Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tizimida raqamli ta'lim muhitidan samarali foydalanish, maktabgacha yoshdagi bolalarning integrativ rivojlanishini ta'minlash va mazkur jarayonni tashkillashtirishda foydalanilgan pedagogik texnologiyalar haqida bayon etilgan. Shu jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalar orqali bolalarning intelektual, hissiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning metodlari tahlil qilingan.*

Аннотация*. В статье рассматриваются вопросы эффективного использования цифровой образовательной среды в системе дошкольного образования, содействия интегративному развитию детей дошкольного возраста, а также педагогические технологии, применяемые для организации этого процесса. В частности, анализируются методы развития интеллектуальных, эмоциональных и коммуникативных компетенций детей с помощью современных педагогических технологий и цифровых образовательных инструментов.*

Abstract. *This article discusses the effective use of the digital educational environment within the preschool education system, the promotion of the integrative development of preschool-aged children, and the pedagogical technologies employed to organize this process. Specifically, it analyzes methods for developing children's*

intellectual, emotional, and communicative competencies through modern pedagogical technologies and digital educational tools.

Kalit so'zlar. *Raqamli ta'lim muhiti, integrativ rivojlanish, pedagogik texnoliya, kompetensiya, kommunikatsiya, metod.*

Ключевые слова. *Цифровая образовательная среда, интегративное развитие, педагогическая технология, компетенция, коммуникация, метод.*

Keywords. *Digital educational environment, integrative development, pedagogical technology, competence, communication, method.*

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni joriy etisni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim bosqichida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish hozirgi dolzarb vazifalardandir. Bunday vositalar ta'limiy o'yin jarayonlarining qiziqarli, interaktiv va individual ta'sirlarini kuchaytiradi. Bundan tashqari fanlararo integratsiya maktabgacha yoshidagi bolalarni olamni yaxlit tarzda tasavvur qilishga, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llashda, amaliy vaziyatlardan esa xulosa chiqarishga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim muhiti sharoitida tarbiyalanuvchilarga axborot texnologiya fositalaridan samarali foydalanishni o'rgatish muhim vazifadir. Shu mavzu yuzasidan bir qancha fikrlarni tahlil qilamiz.

Raqamli ta'lim muhiti bolalarni diqqatini jalb qilishga, tezkor fikrlashga va ijodkorligini rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. Interfaol o'yinlar va vedioroliklar orqali bolalar bilimlarni oson va qiziqarli tarzda o'rganib olishadi. Bu haqda 0‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: *"Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma 'naviy salohiyatga ega bo 'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo 'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz' "* degan so‘zlari buning yaqqol isbotidir. [2; 2-b]

Raqamli ta’lim muhiti axborot texnologiyalar vositasilar yordamida ta’limiy jarayonlarni tashkillashtirishdir. Barcha ta’lim muassasalarda raqamli ta’lim muhitini yaratish mumkin va bu katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Zamonaviy ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning kompetensiyalarini rivojlantirish faqat ananaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmay, balki raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan integratsion muhit orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Intergativ yondashuv pedagogik jarayonning xohlagan tarkibiy qismida integratsiya tamoyilini ro‘yobga chiqarishni nazarda tutadi hamda uning bir butunligini va tizimliligini ta’minlaydi. Integrativ jarayonlar tizimning alohida elementlarini yoki butun tizimning sifat jihatidan qayta yaratilishi jarayonlaridir.

Integratsiya-bu mashg‘ulotlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni mashg‘ulotlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishida namoyon etadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. [4;30-b]

Raqamli ta’lim muhitida bolalarni fanlararo integrativ rivojlanishini tashkillashtirish samaralidir. Turli xil vediodarsliklar, vedioroliklar va slaydlar orqali turli fanlarni o’zaro birlashtirish mumkin va bu bolalarni e’tiborini jalb qilishga, diqqatini jamlashga va xotirasida mustahkam qolishga asos bo’ladi. Hozirgi zamon texnologiyasi bilan tashkillashtirilgan mashg’ulotlar bolada keng tafakkurni shakllantiradi. Masalan tabiat hodisalarini animatsiyalar orqali kuzatish, matematik tushunchalarni o’yin shaklida o’zlashtirish yoki ertak qahramonlari ishtirokidagi interaktiv mashg’ulotlar bolalarda bilim olishga nisbatan motivatsiyani shakllantiradi. Fanlararo integrativ rivojlanishni ta’minlash texnologiyasini takomillashtirish quyidagi yo’nalishlarni o’z ichiga oladi:

-raqamli ta’lim resurslarini pedagogik maqsadlarga mos ravishda tanlash;

-STEAM elementlarini maktabgacha ta’lim mazmuniga integratsiya qilish;

-o’yin texnologiyalaridan foydalanish orqali bilish faoliyatini faollashtirish;

-individual va differensial ta’limni tashkil etish;

-ota-onalarni raqamli ta’lim jarayoniga jalb etish;

-pedagoglarni raqamli kompetensiyalarini muntazan rivojlantirish.

Integrativ ta'lim jarayonida bola, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini his qila olish, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega boladi. Ta'limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni muddaodir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoni uchun tadbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili metodik fanlarning predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to'liq o'zlashtirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, faoliyatni tashkil qila olgan pedagog va bolalarda o'zining faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Mttning asosiy vazifalaridan biri bolalarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat.[11; 2-b]

Raqamli ta’lim texnologiya muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning fanlararo integrativ rivojlanishini ta’minlash texnologiyasini takomillashtirish zamonaviy ta’limning muhim yo’nalishlaridan biridir. Mazkur texnologiya bolalarning intellektual, ijodiy, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishini kompleks tarzda qo’llab-

quvvatlaydi. Raqamli vositalarni fanlararo integratsiya asosida qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga, bolalarni keying ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlashga xizmat qiladi. Raqamli ta'lim muhitida integratsiyalashgan o'yin ta'limiy jarayonni yaratish bolalarga har tomonlama yondashishda kata afzalliklar yaratadi. Ushbu jarayon maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning aqliy va hissiy kompetensiyalarini shakllantirishda yordam beradi. Hozirda gadjetlarsiz bolalarni tarbiyalash qiyin muammo. Biz bu muammoni samarali muhit yaratib bartaraf etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

2.O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining maktabgacha ta'limga oid me'yoriy hujjatlari.

3.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56-bet.

4.Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

5.Karimova D. Raqamli pedagogika asoslari. Toshkent, 2020.

6.Qodirov A. Elektron ta'lim tizimining nazariy asoslari. Toshkent: Fan, 2020.

7.Polat E.S., Buxarkina M.Yu., Moiseyeva M.V. Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. Moskva: Akademiya, 2019.

8.UNESCO. *ICT in Early Childhood Education*. Paris.

9.OECD. *The Future of Education and Skills 2030*.

10.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va STEAM ta'limiga oid ilmiy manbalar.

11.Abduraufova UI. Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashganbilim berish jarayonida integratsiyalashganbilimlarning nazariy jihatlari. Maqola 2023-y.

HARBIY XIZMATCHILARNINIG KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANISHTIRISHDA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH BOSQICHLARI

G‘oziyev Xusan G‘aybullayevich

Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filiali

xusangoziyev89@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarda kasbiy kompetentlik va ijtimoiy-psixologik jarayonlar, harbiy xizmatchilarda kompetentsiya va uni rivojlantirishni tadqiq qilish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmatchilarda kasbiy kompetentlik va ijtimoiy-psixologik jarayonlar, harbiy xizmatchilar shaxsiga xos bo‘lgan aloxida xususiyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, samarali moslashuv, burchga sodiqlik, kasbiy ong.*

Annotation*. This article discusses the socio-psychological features of military service, the study of competence and its development in military personnel, and the completion of initial military-patriotic education in young people.*

Key words: *competence in military personnel, research methods of its development, military patriotism in young people, military service, effective adaptation, loyalty to duty, professional consciousness.*

Jahonda globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi va xavfsizlikka tahdidlarning ortib borishi harbiy xizmatchilarni tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy harbiy faoliyat nafaqat yuqori darajadagi kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki psixologik barqarorlik, tezkor qaror qabul qilish, stress holatlarida samarali faoliyat yuritish kabi shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni ham talab etadi. Shu jihatdan harbiy xizmatchilarning kasbiy

kompetentligini rivojlantirishda psixologik-pedagogik kompetentlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy xizmatchilarninig kasbiy kompetentligini rivojlanishtirishda o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bosqichlari - harbiy sohada xizmat qilayotgan xizmatchilarning kasbiy malakalarini, bilimi va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning vazifalarni bajarish imkoniyatlarini tahlil qilish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon, odatda, harbiy xizmatchilarning samaradorligini oshirish, xizmatda muvaffaqiyatga erishish va ularni tayyorlashda yuksak natijalarga erishishga qaratilgan.

O‘quv va ish faoliyatining tahlili: Kasbiy kompetentlikni aniqlash uchun kasb egasining o‘quv va ish faoliyati doimiy ravishda tahlil qilinadi. Bu jarayonda individual natijalar, yutuqlar, muvaffaqiyatlar va xatolar ko‘rib chiqiladi.

Kuchli va zaif tomonlarni aniqlash (SWOT tahlili): Kasb egasining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar tahlil qilinadi. Bu, masalan, harbiy xizmatchilarda jangovar tayyorgarlik, rahbarlik ko‘nikmalari va psixologik barqarorlikni o‘z ichiga oladi.

Mezonlarga asoslangan baholash: Kasbiy kompetentlikni aniqlash uchun belgilangan mezonlar bo‘yicha o‘rganish o‘tkazish. Bu mezonlar kasbning talablariga mos ravishda farq qiladi. Misol uchun, harbiy xizmatchilar uchun jangovar tayyorgarlik, stressga bardoshlik va taktika bo‘yicha bilimlar, pedagoglar uchun pedagogik uslublar, tibbiyot xodimlari uchun tibbiy ko‘nikmalar asosiy omil hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlikni baholashda turli metodlar va vositalar qo‘llaniladi:

Harbiy qism, muassasa ichidagi baholash (ichki baholash): Bu metodda komandir va boshliqlar qo’l ostidagi harbiy xizmatchilari (hodimlarining) kasbiy kompetentligini baholaydilar. Bu baholashning asosiy vositalari intervyu, kuzatuvlar, baholash varaqalari, o‘z-o‘zini baholash va feedbacklar bo‘lishi mumkin.

So‘rovnomalar va testlar: harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini baholash uchun so‘rovnomalar va maxsus testlar yordamida nazariy va amaliy bilimlari tekshiriladi. So‘rovnomalar orqali xodimlarning malaka darajasi, bilim va ko‘nikmalari o‘lchanadi.

Amaliyotlar va simulyatsiyalar: Xodimlarning kompetensiyasini o‘lchash uchun amaliyotlar va simulyatsiyalar tashkil etiladi. Misol uchun, harbiy xizmatchilarda jangovar vazifalarni bajarish simulyatsiyasi, pedagoglarda o‘quv jarayonining samaradorligini o‘lchash, tibbiyot xodimlarida diagnostika va davolash jarayonlarini o‘tkazish.

360 daraja baholash: Bu metodda harbiy xizmatchi(hodim)ning kompetentligi turli manbalardan o‘lchanadi — rahbarlar, hamkasblar, bo‘linma a'zolari va mijozlardan (agar mavjud bo‘lsa) fikrlar olinadi. Bu holat hodimning kasbiy kompetensiyasini har tomonlama baholash imkonini beradi.

Kasbiy kompetentlikni baholash, shuningdek, harbiy xizmatchi(hodim)ning kasbiy rivojlanishi uchun zarur yo‘nalishlarni aniqlashda yordam beradi. Baholash natijalariga ko‘ra, harbiy xizmatchilarga, hodimlarga quyidagi rivojlanish imkoniyatlari berilishi mumkin:

Trening va o‘quv dasturlari: Kasbiy kompetentlikni oshirish uchun o‘quv dasturlari va treninglar tashkil etiladi. Masalan, rahbarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni o‘rganish yoki psixologik tayyorgarlikni oshirish.

Mentorlik va coaching: Tajribali hodimlar va rahbarlar tomonidan yangi hodimlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, maslahatlar berish. Bu mentorlik tizimi xodimning malakasini oshirishda samarali bo‘ladi.

Harbiy qism, muassasa ichida o‘zgarishlar: harbiy xizmatchilarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun tashkilotda ish jarayonlarini optimallashtirish, yangi imkoniyatlar yaratish va motivatsiya tizimlarini takomillashtirish.

Kasbiy kompetentlikni baholashning ahamiyati, bunda kasbiy kompetentlikni aniqlash va baholash har bir tashkilot va kasb egasi uchun muhimdir, chunki:

Samarali ish faoliyati: Xodimlarning kompetensiyasini baholash ularning xizmat va ish faoliyatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Kadrlar siyosati: kasbiy kompetentlikni baholash tashkilotlarga harbiy xizmatchilarning malakasini aniqlash va rivojlantirish uchun to‘g‘ri kadrlar siyosatini shakllantirish imkonini beradi.

Resurslarni tejash: harbiy xizmatchilarning kompetensiyasini baholash orqali, kerakli treninglar va rivojlanish yo‘nalishlariga sarmoya kiritish mumkin, bu esa resurslarni tejashga olib keladi.

Kasbiy kompetentlikni aniqlash va baholash jarayoni, harbiy muassasaning samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilarning malakasini oshirish va ularni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi harbiy xizmatchilarning qobiliyatlari va malakasini to‘g‘ri baholash va ularga mos rivojlanish imkoniyatlarini yaratishda yordam beradi.

2. Kasbiy rivojlanish dasturlari: harbiy xizmatchilarning kompetentligini oshirish uchun treninglar, ta’lim va professional rivojlanish dasturlari tuziladi. Bunga soha mutaxassislari tomonidan o‘qitish va amaliy mashg‘ulotlar kiradi.

Kasbiy rivojlanish dasturlarining turlari:

Formal ta’lim: Harbiy akademiyalar, malaka oshirish kurslari, ixtisoslashtirilgan treninglar.

Noformal ta’lim: Seminarlar, mentorlik dasturlari, xizmatdagi ichki mashg‘ulotlar.

O‘z-o‘zini rivojlantirish: Onlayn kurslar, kitoblar, harbiy adabiyotlarni o‘rganish.

Kasbiy rivojlanish dasturlarining kompetensiyaga ta’siri kompetensiyalarni baholashdan oldin va keyin o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun juda ahamiyatlidir.

Tahliliy metodlar: testlar, intervyular, kuzatuv, 360-darajali baholash.

Real xizmat holatida o‘zini ko‘rsatgan amaliy ko‘nikmalar.

Kasbiy rivojlanish dasturlarining harbiy xizmatchilar kompetensiyasiga ta’sirini aniqlashda empirik tadqiqotlar, so‘rovnoma, statistik tahlil, nazorat va tajriba guruhlari taqqoslash usullaridan ko‘proq foydalaniladi.

3. Rivojlanishning samaradorligini o‘lchash: Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarning samaradorligi o‘lchanadi. Bu harbiy xizmatchilarning xizmat sifatini va o‘zgargan ko‘nikmalarini kuzatishni o‘z ichiga oladi.

Harbiy xizmatchilarda kompetensiyani tadqiq etishda rivojlanish samaradorligini o‘lchash, bir nechta omillarni hisobga olishni talab qiladi. Kompetensiya rivojlanishi - bu harbiy xizmatchilarning malakalari, bilimlari va ko‘nikmalarining oshishini o‘z ichiga oladi. Samaradorlikni o‘lchash uchun quyidagi yondoshuvlar ishlatilishi mumkin:

Ko‘nikma va bilimlarning oshishi: harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini bajarishda qancha yaxshi bilim va ko‘nikmalarga ega ekanligini baholash. Bu, masalan, treninglar, simulyatsiyalar yoki amaliy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

O‘qish va trening samaradorligi: harbiy xizmatchilarning trening va ta’lim jarayonlaridan keyingi natijalarini baholash. Treninglardan olingan natijalar, masalan, sinovlar va testlar orqali o‘lchab borilishi mumkin.

Liderlik va boshqaruv ko‘nikmalari: komandirlar va boshliqlarning liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini baholashda samaradorlikni o‘lchashda harbiy xizmatchilarni boshqarish qobiliyatlari ham katta rol o‘ynaydi.

Samarali qaror qabul qilish: Harbiy xizmatchilarning qaror qabul qilish va vaziyatlarni tahlil qilishdagi samaradorligini baholash. Bu, shuningdek, stress va qarshiliklarga bardoshlikni ham o'z ichiga oladi.

Jamoaviy ish ko‘nikmalari: harbiy xizmatchilarning jamoa bilan ishlashdagi samaradorligini o‘lchash. Harbiy operatsiyalar va mashg‘ulotlar jamoaviy ishni talab qiladi, shuning uchun harbiy xizmatchilarning jamoa ichida samarali ishlashini baholash juda muhim.

Natijalar va vazifalarni bajarish: o‘quv mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatli yakunlanishi, vazifalar va missiyalarni bajarish darajasi ham samaradorlikni o‘lchashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bu mezonlar yordamida harbiy xizmatchilarda kompetensiyaning rivojlanish samaradorligini o‘lchash mumkin. O‘lchash jarayonida aniq, o‘lchab bo‘ladigan ko‘rsatgichlar va parametrlarni belgilash, natijalarni tahlil qilish va rivojlanishning keyingi bosqichlarini aniqlash muhimdir.

Harbiy xizmatda psixologik tayyorgarlikning ahamiyati, bunda psixologik tayyorgarlik — bu harbiy xizmatchining ruhiy bosim ostida samarali qarorlar qabul qilish, emotsiyalarni boshqarish, og‘ir holatlarga bardosh bera olish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu tayyorgarlik harbiy xizmatchining har qanday holatda o‘zini tutishi va jamoa bilan muloqotda bo‘lish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Kompetensiya, motivatsiya va psixologik tayyorgarlik o‘rtasidagi bog‘liqlik bu yuqori darajadagi motivatsiyaga ega va psixologik jihatdan tayyorlangan xizmatchilar tez va aniq qaror qabul qilishadi, jamoaviy ishda faol bo‘lishadi, rahbarlik kompetensiyalarini ko‘rsatishadi, yangiliklarga ochiq bo‘lishadi va o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.

Xulsa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda motivatsiya va psixologik tayyorgarlik ajralmas omil hisoblanadi. Bu ikki jihatning uyg‘unligi xizmatchining xizmat samaradorligi va professional o‘sishini ta’minlaydi. Shu bois, harbiy kadrlarga doimiy psixologik treninglar, motivatsion dasturlar va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yaratish zarur.

Bularning barchasi harbiy tizimning rivojlanishi va zamonaviy ehtiyojlarga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning professional faoliyati nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki intellektual, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlangan bo‘lishini ham talab etmoqda. Kompetensiya – bu harbiy xizmatchining aniq bir vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va xulq-atvorlar majmuidir.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi nafaqat harbiy xizmatchining shaxsiy maqsadlari, balki yurtimiz tinchligi va xavfsizligini ta’minlash, davlat mudofaasi sohasidagi umumiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Shuning uchun, harbiy xizmatchilarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, kasbiy kompetentlikni oshirish, va shu orqali ularning o’zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini ta’minlash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi konsitutsiyasi Toshkent-2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy nizomlari Toshkent-2025.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari.

4. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi Toshkent-2023

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2006. – 73-b. 6. Entonix Giddens. Sotsiologiya. – Toshkent. 2002, 110-bet.

6. Urbanovich A.A. Psixologiya upravleniya. Ucheb. posobiye. – M., Xarvest. 2007. – 604- bet.

7. Harbiy psixologiya va pedagogika I.Saidov Farg‘ona-2021

8. Psixologiya E.G‘oziyev Toshkent-2011

9. Boyev X.Y “ Harbiy xizmatchilar shaxsida stressni namoyon bo‟lishining ijtimoiypsixologik xususiyatlari” Toshkent 2022.

10. Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda kasbiy madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining bugungi holati va o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta’lim va innovasion tadqiqotlar – Toshkent, 2022. № 11. –B. 167-171.

11. Ball G.A. Понятие адаптации и его значение для психологии личности. Вопросы психологии. М.: 1989. с. 92-100.

7. Muitsinov S.S.. Молодые воины: воспитание и адаптация в коллективе. - М.: Институт военной истории МО СССР, 1989. - 86 с.

6-7 YOSHLI BOLALAR NUTQ FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Jabborova Maftuna Komil qizi

QarDU

E-mail: maftuna97jabborova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqiy faolligi haqida ma'lumot berilgan. Shuning bilan birga bolalar nutq faolligini rivojlantirishda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar haqida fikr yuritilgan. Bolalardagi nutqiy faollikning bilish faoliyati bilan bog'liqligi o'rganilgan hamda, uning pedagogikada ahamiyati tahlil qilingan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о речевой активности детей младшего школьного возраста. Одновременно рассматриваются современные педагогические подходы, используемые в развитии речевой активности детей. Изучается взаимосвязь между речевой и познавательной активностью детей и анализируется её значение в педагогике.*

Abstract. *This article provides information about the speech activity of children of primary school age. At the same time, it discusses modern pedagogical approaches used in the development of children's speech activity. The relationship between speech activity in children and cognitive activity is studied and its significance in pedagogy is analyzed.*

Kalit so'zlar: *nutqiy faollik, bilish, bola, qobiliyat, zamonaviy yondashuv, erkin fikr, idrok etish.*

Ключевые слова: *речевая деятельность, знание, ребёнок, способность, современный подход, свободное мышление, восприятие.*

Keywords: *speech activity, knowledge, child, ability, modern approach, free thought, perception.*

Barchamizga ma’lumki, bola o‘z his tuyg’ularini, ichki olamidagi kechinmalarini so‘zlari orqali atrofidagi boshqa shaxslarga yetkazadi. Nutq insonning ma’lumot almashinishini ta’minlovchi muhim axborot vositalaridan biridir. Bolalarning o‘z fikrlarini erkin bildirishi, muammolarga tanqidiy qarashlari hamda ularga yechim topa olishni o‘rganishi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Kichik maktab yoshidagi davr bolalarning jismoniy, ruhiy, ma’naviy hamda nutqiy rivojlanishidagi eng muhim davrlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yoshda bolalar atrofidagi dunyoni kuchli idrok bilan o‘rganishadi, voqea-hodisalarga munosabat bildira boshlashadi. Ulardagi bildirilayotgan munosabat albatta tildagi nutq orqali amalga oshiriladi. Nutq bolaning faqatgina axborot vositasi bo‘libgina qolmay, tafakkurini shakllantiruvchi, bilish faoliyatini rivojlantiruvchi hamda shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boladagi nutqiy faoliyat boshqa qobiliyatlarni shakllantirishiga zamin yaratadi.

Nutq barcha insonlarda hayotining ilk yilidan boshlab shakllana boshlaydi, ammo shaxsning xususiyatlariga bog’liq ravishda shakllanishda davom etadi. Masalan, 3 yoshli bolaning nutqida o‘rtacha umumiy hisobda 1500-2000 ta so‘z bo‘ladi. Ammo, boshqa bir xuddi shu yoshdagi bolada so‘zlar soni yuqoridagi ko‘rsatkichdan kam yoki ko‘p bo‘lishi mumkin. Bu jarayon bevosita nutqning faollashganligi yoki faollashmaganligiga bog’liq.

Bolalar nutqini faollashtirish deganda- bolaning lug'at boyligini kengaytirish, grammatik jihatdan to‘g'ri gap tuzish, tovushlarni aniq talaffuz qilish, ravon va mantiqiy fikr bayon etish hamda erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik faoliyat tushuniladi. Nutqning faollashuvi bolaning bilim olish jarayoniga, tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot o‘rnatishiga, shuningdek, maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Boladagi nutqiy faollikning rivojlanishi bilish faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Buni biz ko'pgina psixologik dabiyotlarda uchratishimiz mumkin. Insondagi kognitivlik, aqliy jarayonlar, diqqat, xotira, muammolarni hal etish, idrok, aql. qaror qabul qilish va tildan foydalanishga ta'sir etadi [1; 97-b].

Nutqning rivojlanishi ham bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqati va tasavvurining rivojlanishi bilan parallel ravishda kechadi. Bola yangi predmet va hodisalarni o'rganar ekan, ularni nomlaydi, tavsiflaydi va ular haqidagi fikrlarini ifodalay boshlaydi. Natijada uning faol lug'ati tobora kengayib boradi. Nutq faolligi bolaning til birliklarini amaliy muloqot jarayonida mustaqil qo'llay olish darajasi bilan belgilanadi. Faol nutqqa ega bo'lgan bola savollarga erkin javob beradi, suhbatni davom ettira oladi, voqealarni izchil hikoya qiladi hamda o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini aniq ifodalaydi.

Bolalar nutqini faollashtirish ta'lim jarayonining muhim qismidan biridir. Negaki, nutqi faol tarzda rivojlangan bola o'quv materialini tezroq o'zlashtiradi, topshiriqlarni to'g'ri anglagan holda tushunadi hamda ularga yechim topadi, o'z fikrini asoslay oladi, jamoa bilan samarali hamkorlik qiladi. Bu esa bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga ham sababchi bo'ladi. Nutqning yetarli darajada rivojlanmaganligi esa muloqotdagi qiyinchiliklar, bilimlarni o'zlashtirishdagi sustlik, o'ylangan fikrlarning to'g'ri talqin qila olinmasligi, erkin fikrlash o'riga boshqalarning qaror va qarashlariga qaramlik kabi bir qancha muammolar hamda noqulayliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun, erta yoshdan boshlab bola bilan birgalikda bir qancha pedagogik ishlarni tashkil etish lozim. Jumladan, mashg'ulot yoki dars jarayonida (bola 7 yoshini maktabda o'tkazadi) passiv so'z boyligini faolligini oshirishga qaratilgan o'yinlardan foydalanish, og'zaki nutqda gapirilayotganda tovush madaniyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, bolalar yangi so'zlarni o'zlashtirish jarayonida eshitganlarini takrorlashadi. Lug'at ishida bolaga o'rgatilayotgan so'zlar to'g'ri va ravon talaffuz qilingan holatda aytilishiga

e’tibor qaratish kerak. So‘zlarni bola qaytadan aytganida esa, tovushlarni noto‘g’ri talaffuz qilishi tabiiy hisoblanadi. Shu jarayonda pedagoglar tovushlarni talaffuzini tog’ri tarzda talqin etishlari, bolaning xotirasida bu so‘zning to‘gri yozilishi uchun xizmat qilishadi. Bundan tashqari bola nutqining faolligida, dialogic va monologik nutq ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki, bolalar kun davomida albatta kim bilandir gaplashishadi, muloqot qilishadi. Bu bolaning dialogic nutqini shakllanishida muhimdir. Lekin, har bir bolada monologik nutq yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Negaki, har bir bola har kuni kimgadir ertak aytib bermasligi yoki kunini qay tarzda o‘tkazganligi haqida kimgadir bayon etmasligi mumkin. Bu jarayonni amalga oshirishda asosiy vazifa oiladagi hamkorlik jarayonining ishtirokchilariga yuklanadi. Bola nutqining faolligini oshirishda oilaning o‘rni ham salmoqli ekanligi ko‘pgina tadqiqotlarda isbotlangan.

Bundan tashqari ko‘pgina bolalar so‘zlashganda grammatik jihatdan anglamagan tarzda xatoga yo‘l qo‘yishadi. Masalan, “Kecha shirin ovqa yedik”. Bu yerda “kecha” so‘zi hozirgina degan ma’noda bola tomonidan noto‘g’ri ishlatiladi. “Kasal bo‘lib isitmam chiqdi. Oyim menga dorilar berdilar shuning uchun”, bu yerda esa, “shuning uchun” sabab so‘zi gapning boshida emas, aksincha yakunida qo‘llanilib, gapning tushunilishini qiyinlashtiradi. Faol nutqqa erishish uchun esa, bolalarni so‘zlar o‘z o‘rnida tog’ri tarzda qo‘yib gapirishga o‘rgatish kerak.

Bolalar nutqini rivojlantirishda interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish yuqori natijalar beradi. Ayniqsa, didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar yaratish, rasmlar asosida hikoya tuzish, ertaklarni sahnalashtirish, savol-javob mashqlari va suhbat metodlari bolalarda erkin fikrlash va mustaqil nutqni rivojlantiradi. Badiiy adabiyot bilan ishlash ham nutq faolligini oshirishning muhim vositalaridan biridir. Ertak, hikoya, she'r va topishmoqlar orqali bolalarning lug'at boyligi kengayadi, obrazli tafakkuri rivojlanadi hamda ifodali nutq ko‘nikmalari shakllanadi. Matnni qayta

hikoya qilish, qahramonlar xarakterini tavsiflash va voqealar ketma-ketligini izohlash kabi mashqlar bog'lanishli nutqni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Bolalar nutqini faollashtirishda ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Oilada kitob o‘qish, ertak aytish, kundalik suhbatlar tashkil etish, bolaga ochiq savollar berish hamda uning javoblarini diqqat bilan tinglash nutq rivojlanishini sezilarli darajada jadallashtiradi. Pedagoglar esa ota-onalarga metodik tavsiyalar berish, nutqni rivojlantirish bo‘yicha seminar va treninglar o‘tkazish orqali ushbu jarayonning samaradorligini oshirishlari mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqiy faolligini oshirishda foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalar, bolaning erkin fikrlashi, so‘z boyligining oshishi, so‘zlarni o‘z o‘rnida grammatik jihatdan to‘g’ri qo‘llay olishida, muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda muhimdir. Nutqni rivojlantirish jarayoni tizimli, izchil va ilmiy asoslangan metodlar asosida tashkil etilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin. Pedagogning kasbiy mahorati, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishi hamda oila bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi bolalarda erkin, ravon va mantiqiy nutqni shakllantirishning muhim shartlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Kleynmen P. 101 Psixologiya. -Toshkent: Hamroh books, 2024. - 279 b.

2.Masari Ibuka Uchgacha ayni vaqti. -Toshkent : Hilol nashr, 2021. - 244 b.

3. Xodjayev B.X. Pedagogika. - Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2017. 410 b.

4.Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. - Toshkent: O‘qituvchi, 2016.- 362 b.

GO‘ZAL BEGIM IJODIDA UCHLIK SHE’RLAR (“SACHRATQI”) POETIKASI: SHAKL, OBRAZ VA FALSAFIY MAZMUN TAHLILI

Qodirov Umidbek Shavkat o‘g‘li

NukusDPI

Email: xonqaimi@mail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek shoirasi Go‘zal Begimning “sachratqi” deb atalgan uch qatorlik she’rlari shakl, obrazlar tizimi va falsafiy-estetik mazmuni nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoiraning an’anaviy vazn, qofiya va tinish belgilaridan voz kechib, erkin she’r poetikasiga tayanishi, shuningdek uning uchliklarida uchraydigan paradoksal obrazlar — baxt, iztirob, bo‘shliq, ikkilangan “men”, tabiat kabi motivlar orqali ekzistensial kayfiyat va shaxsiy identifikatsiya muammosining badiiy talqini yoritiladi. Xulosada “sachratqi” shaklining zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi o‘ziga xos o‘rni belgilanadi.*

Kalit so‘zlar: *Go‘zal Begim, sachratqi, uchlik she’r, mikropoetika, erkin she’r, obraz, ekzistensializm.*

Аннотация. *В статье анализируются трёхстрочные стихотворения современной узбекской поэтессы Гузал Бегим, названные ею «сачратки», с точки зрения формы, системы образов и философско-эстетического содержания. Рассматривается отказ поэтессы от традиционного размера, рифмы и знаков препинания в пользу поэтики свободного стиха, а также художественное осмысление экзистенциального настроения и проблемы личной идентичности через парадоксальные образы — счастье, страдание, пустоту,*

раздвоенное «я», природу. В заключение определяется место формы «сачратки» в современной узбекской поэзии.

Ключевые слова: *Гузал Бегим, сачратки, трёхстишие, микропоэтика, свободный стих, образ, экзистенциализм.*

Abstract. *This article examines the three-line poems of the contemporary Uzbek poet Go‘zal Begim, which she calls “sachratqi,” from the standpoint of form, imagery, and philosophical-aesthetic content. It considers the poet’s departure from traditional meter, rhyme, and punctuation in favor of free-verse poetics, as well as the artistic treatment of existential mood and the problem of personal identity through paradoxical images — happiness, suffering, emptiness, the divided self, and nature. The conclusion outlines the place of the “sachratqi” form within contemporary Uzbek poetry.*

Keywords: *Go‘zal Begim, sachratqi, tercet, micropoetics, free verse, image, existentialism.*

She’riyatda mazmunning ixchamlik orqali chuqurlashuvi doim e’tiborni tortadigan hodisa bo‘lgan. Qisqa hajmli she’riy shakllar, xususan, uch misrali she’rlar shu nuqtayi nazardan alohida o‘rin tutadi: ular lakonik tuzilishi, semantik sig‘imi va falsafiy umumlashmaga moyilligi bilan ajralib turadi.

Jahon she’riyatida bunday shaklning eng tanilgan namunasi yapon xokkusi (haiku) hisoblanadi. An’anaga ko‘ra 5–7–5 bo‘g‘in tizimiga asoslangan xokkuda tabiat, inson va borliq o‘rtasidagi uyg‘unlik falsafiy mushohada orqali ifodalanadi — minimal shaklda maksimal mazmun berish tamoyili bu janrning o‘zagini tashkil qiladi. Fransuz simvolistlari va rus futuristlari ijodida ham qisqa poetik shakllar orqali obraz va ma’no birligiga erishishga intilish kuzatiladi.

XXI asr o‘zbek she’riyatida kechayotgan estetik yangilanishlar orasida Go‘zal Begim ijodi alohida o‘rin egallaydi — bu shakl, obraz yaratish usuli, semantik ochiqlik

va sintaktik erkinlik nuqtayi nazaridan e'tiborga loyiq hodisa. Shoira o'zi yaratgan uch qatorlik she'rlarini "sachratqi" deb ataydi; bu atama uning individual poetik tizimida mustaqil janr belgisi vazifasini bajaradi.

Individual mikropoetik shakllarning yuzaga kelishi so'nggi yillar o'zbek she'riyatida keng tarqalgan tendensiyaga aylandi: A. Obidjonning "ignabarg", "uchchanoq", "uchpaxsa"lari, F. Afro'zning "fiqra", "tasbeh"lari, Dilshod Rajabning "musallas"lari, Usmon Qo'chqorning "muqarnas"lari, Abdu Nabining "beshnavo"lari, I. Subhoniyning "shashqator" deb nomlangan birlik, ikkilik, uchlik, beshlik, oltilik shakllari qatorida Go'zal Begimning "sachratqi"lari ham o'ziga xos o'rin egallaydi [3, 23-b.].

Bunday izlanishlarning tabiiyligini shoir Bahrom Ro'zmuhammad shunday izohlaydi: "An'anaviy she'riyatga ko'nikkan nazm muxlisi uchun milliy adabiyotimiz ichida rang talashayotgan modern she'riyat g'ayritabiiy tuyulishi aniq. Biroq hozirgi zamon G'arb she'riyatidan bohabar she'rxon bu borada hech taajjublanmaydi" [2, 3-b.].

Mazkur maqolaning maqsadi — Go'zal Begimning "Sachratqi" turkumidagi uchlik she'rlarini shakl, obrazlar tizimi va falsafiy-estetik mazmun nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ularning zamonaviy o'zbek she'riyatidagi o'rnini belgilashdir.

"Sachratqi" shaklining uslubiy xususiyatlari: Go'zal Begim she'riyati an'anaviy vazn, qofiya va sintaktik me'yorlardan ongli tarzda voz kechib, erkin she'r poetikasiga tayanadi. Bunda diqqat tashqi shakldan ko'ra ichki mazmun, ruhiy holat va metaforik idrokka qaratiladi. Shoiraning tinish belgilaridan foydalanmasligi matnning uzluksiz tafakkur oqimi sifatida idrok etilishiga xizmat qiladi: bu holat poetik tafakkurning uzluksizligini ta'minlaydi, semantik ochiqlikni kuchaytiradi va o'quvchini faol talqin jarayoniga jalb etadi. Peter Barri ta'kidlaganidek, minimalist she'riyat o'zining ixchamligi tufayli o'quvchidan aksincha kengroq, "maksimalist"

talqinni talab qiladi [4, 92-b.]. Go‘zal Begim she’rlarida ham xuddi shu holat kuzatiladi: uch qatorlik matn ortida ko‘p qatlamli ma’no yashiringan bo‘ladi.

Ichki monolog, psixologik parchalanganlik, metafizik idrok va ekzistensial kayfiyat shoira matnlarining asosiy yo‘nalishini belgilaydi. U voqelikni bevosita tasvirlamaydi, balki uni metaforik tafakkur orqali qayta yaratadi: obraz predmet emas, ruhiy holat ramzi sifatida talqin qilinadi.

Obrazlar tizimi va ramziy-falsafiy mazmun: Shoiraning uchlik she’rlarida markaziy o‘rinni paradoksal obrazlar egallaydi. Quyidagi she’rda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Qo‘limda baxtning kaliti

Burasam

Uchib ketar qanotsiz qushlar

“Baxtning kaliti” obrazi baxtni boshqarish mumkinligiga ishonchni ifodalasa, uchinchi misradagi “qanotsiz qushlar”ning uchib ketishi kutilmagan semantik burilish yaratadi: bu — baxtning barqaror emasligi, uni to‘liq nazorat qilib bo‘lmasligi haqidagi bashorat. Qush an’anaviy ravishda erkinlik ramzi bo‘lsa-da, uning “qanotsiz” holatda parvoz qilishi Albert Kamyu ta’riflagan absurd tafakkur bilan uyg‘un: inson xohishi va hayotning beqaror tabiati o‘rtasidagi ziddiyat shu tariqa ochiladi [5, 34–36-b.].

Ijod jarayonining ichki og‘riq bilan bog‘liqligi quyidagi misralarda ifodalanadi:

Shakllangan iztirob

Turfa libosda

Qalamim yonidan o‘tib ketadi

Bu yerda iztirob mustaqil obraz sifatida gavdalanadi: “turfa libos” uning ko‘p qirrali tabiatini, “qalam yonidan o‘tib ketishi” esa ijodiy ojizlik yoki ichki sukut holatini anglatadi. Qalamning faol emas, kuzatuvchi pozitsiyada berilishi modern she’riyatga xos begonalashuv g‘oyasi bilan bog‘liq.

Bo‘shliq va yo‘qotish motivi quyidagi she’rda takror orqali kuchaytiriladi:

Bo‘sh-bo‘sh shamol

Beshigimni tebratar har kech

Beshigim bo‘sh-bo‘sh

Beshik an’anaviy ravishda hayot davomiyligi va avlod ramzi bo‘lsa, uning “bo‘sh” holatda berilishi ruhiy bo‘shliq va ro‘yobga chiqmagan umid timsoliga aylanadi. Misra boshi va oxiridagi takroriy “bo‘sh-bo‘sh” so‘zi kompozitsion doira hosil qilib, ekzistensial holatni ta’kidlaydi.

Shaxsning ichki bo‘linganligi va identifikatsiya muammosi shoira ijodida alohida o‘rin tutadi:

Men farq qilaman o‘zimdan

Va o‘zimda yashayotgan qizdan

Bisotimda yo‘q endi biror o‘xshashlik

Lirik subyekt o‘zini hozirgi “men” va xotiradagi “yashayotgan qiz”ga ajratadi - bu shaxsning o‘z-o‘zidan begonalashuvi motivini yuzaga chiqaradi. “Bisotimda yo‘q” birikmasi ruhiy zaxiralarning tugaganini, o‘zlik bilan o‘tmish o‘rtasidagi uzilishni bildiradi.

Tabiat obrazlari orqali ichki kechinmani ifodalash quyidagi misolda ko‘rinadi:

Ko‘zimda kuz yig‘laydi

Qo‘limda ko‘l

Ajratib qo‘y bizni tafovut

“Kuz” - mung va so‘nish ramzi bo‘lib, uning “yig‘lashi” subyektiv kechinmaning tabiatga ko‘chirilishi (psixologik parallelizm) hisoblanadi. “Qo‘limda ko‘l” - to‘planib, harakatdan to‘xtagan his-tuyg‘ular timsoli, “tafovut” esa ichki farqlanish natijasida yuzaga kelgan masofani anglatadi.

Axloqiy qadriyat va shaxsiy chegaralarning og‘riqli tabiati quyidagi she’rda ochib beriladi:

Qo‘lingni kesib o‘tgan chiziqdan

Pichoq kesib o‘tar bir kuni

Sharaflar qo‘lingni jarohat

“Chiziq” - inson tomonidan belgilangan tamoyil yoki taqdir yo‘li; uning “pichoq”qa aylanishi ilgari ramziy bo‘lgan narsaning real jarohatga aylanishidir. “Sharaf”ning jarohat yetkazuvchi kuch sifatida berilishi axloqiy qadriyatlarning inson ruhiyati va jismiga bosim o‘tkazishini ifodalaydi.

Go‘zallik va umidning himoyasizligi mavzusi quyidagi misralarda kutilmagan qarama-qarshilik orqali yuzaga chiqadi:

Uchayotgan yaproq soyasi

Kirib ketdi qaysidir uyga

Kuchuk tishlab oldi bahorni

Bahor an’anaviy ravishda yangilanish va hayot timsoli bo‘lsa, bu yerda u zo‘ravonlik bilan to‘qnash keladi - go‘zallikning ham beqaror va himoyasiz ekanini ko‘rsatuvchi holat.

Nihoyat, sinestezik idrok va ichki erkinlik g‘oyasi quyidagi she’rda uyg‘unlashadi:

Uchib borayotgan qushning qanoti

Qarog‘imda jimirlaganda

Tovushimga erk ulashdim men

Ko‘rish, eshitish va sezish bir poetik makonda birlashadi: shoira tovushga erk berish orqali ichki ozodlik g‘oyasini ilgari suradi. Xuddi shunday, “Nazvo‘y gulining quloqlariga / Men seni sevaman deb shivirladim / Shu taxlit uzdim men gulning hidini” misralarida muhabbat oshkora emas, balki nozik va ehtiyotkor tarzda, tabiat bilan uyg‘un holda ifodalanadi.

Mikropoetika va o‘quvchi bilan munosabat: Go‘zal Begim ijodida uchlik misralar shakli asosiy poetik format sifatida ajralib turadi. Hajmi kichik bo‘lishiga qaramay, misralarning mazmuniy qatlamlari chuqur va ko‘p qirralidir. An’anaviy tinish belgilari va vazn tizimidan voz kechish o‘quvchini faol talqinchiga aylantiradi — har bir misra mustaqil semantik birlik sifatida qabul qilinadi. Shu tarzda shoira mikropoetika elementlari orqali minimalizm va falsafiy umumlashmalarni yetkazishga erishadi, natijada o‘quvchi voqeani passiv qabul qiluvchi emas, balki his-tuyg‘ular bilan bog‘lanadigan faol ishtirokchiga aylanadi.

Go‘zal Begim she’riyati o‘zbek modern adabiyotida shakllanayotgan yangi poetik tafakkurning yorqin namunasi hisoblanadi. Shoira “sachratqi” deb nomlagan uch qatorlik she’rlarida metaforik idrokka asoslangan, ramziy talqinli obrazlar yaratadi; ekzistensial ruhiyatni, shaxsiy identifikatsiya muammosini va poetik shaklda erkinlikni ustuvor qo‘yadi. An’anaviy vazn, qofiya va tinish belgilaridan voz kechish orqali shoira o‘ziga xos poetik makon yaratgan bo‘lib, uning ijodi bugungi o‘zbek she’riyatida

modern estetik tafakkurning shakllanish jarayonini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Go‘zal Begim. Uchayotgan yaproq soyasi. – Toshkent, 2022. – B. 10–13.

2. Go‘zal Begim. Sukunat jaranglari. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B. 3.

3. Atajonova N.F. Hozirgi o‘zbek an’anaviy modern she’riyatida Xorazmlik shoiralar ijodining o‘rni: filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Urganch, 2024. – 48 b.

4. Barry P. Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory. – Manchester: Manchester University Press, 1995. – 256 p.

5. Camus A. Le Mythe de Sisyphe. – Paris: Gallimard, 1942. – 187 p.

ICHKI LOKUS NAZORATI TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGI OMILI SIFATIDA

Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti

E-mail: abdullo.ismatullayev@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarda ichki lokus nazoratini rivojlantirishning ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning akademik muvaffaqiyat, o‘quv motivatsiyasi, o‘z-o‘zini boshqarish, mas’uliyat, refleksivlik va ruhiy salomatlik bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ichki lokus nazoratining talabalarning ta’lim faoliyatini mustaqil rejalashtirishi, qaror qabul qilishi, o‘z harakatlari natijalarini baholashi va akademik qiyinchiliklarni konstruktiv tarzda yengib o‘tishiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, tajribaviy o‘qitish, loyiha asosida ta’lim, mentorlik, refleksiv baholash va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi innovatsion pedagogik yondashuvlarning imkoniyatlari ochib berilgan. Talabalarda ichki lokus nazoratini tizimli rivojlantirish ularning akademik muvaffaqiyati, kasbiy tayyorgarligi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilishi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *ichki lokus nazorat, akademik muvaffaqiyat, ta’lim jarayoni, o‘quv motivatsiyasi, o‘z-o‘zini boshqarish, mas’uliyat, refleksiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ruhiy salomatlik.*

Аннотация: *В данной статье научно-теоретически проанализирована роль развития внутреннего локуса контроля у студентов в образовательном процессе, а также его взаимосвязь с академической успешностью, учебной мотивацией, саморегуляцией, ответственностью, рефлексивностью и*

психическим здоровьем. Раскрыто влияние внутреннего локуса контроля на способность студентов самостоятельно планировать свою учебную деятельность, принимать решения, оценивать результаты собственных действий и конструктивно преодолевать академические трудности. Кроме того, рассмотрены возможности инновационных педагогических подходов, таких как опытно-ориентированное обучение, проектное обучение, наставничество, рефлексивное оценивание и использование цифровых технологий. Обосновано, что систематическое развитие внутреннего локуса контроля у студентов способствует повышению их академической успешности, профессиональной подготовки, психологической устойчивости и социальной активности.

Ключевые слова: *внутренний локус контроля, академическая успешность, образовательный процесс, учебная мотивация, саморегуляция, ответственность, рефлексия, инновационные педагогические технологии, психическое здоровье.*

Abstract: *This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of developing an internal locus of control among university students in the educational process and its relationship with academic achievement, learning motivation, self-regulation, responsibility, reflexivity, and mental health. The study highlights the influence of an internal locus of control on students' ability to independently plan their learning activities, make decisions, evaluate the outcomes of their actions, and constructively overcome academic challenges. Furthermore, it explores the potential of innovative pedagogical approaches, including experiential learning, project-based learning, mentoring, reflective assessment, and the use of digital technologies. It is substantiated that the systematic development of an internal locus of control contributes to enhancing students' academic achievement, professional preparedness, psychological resilience, and social engagement.*

Keywords: *internal locus of control, academic achievement, educational process, learning motivation, self-regulation, responsibility, reflection, innovative pedagogical technologies, mental health.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldida nafaqat talabalarga muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni berish, balki mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladigan hamda o‘z faoliyati natijalarini boshqarishga qodir shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi. Zamonaviy mehnat bozori bo‘lajak mutaxassislardan kasbiy bilimlar bilan bir qatorda moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, mas’uliyat, refleksivlik va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalariga ega bo‘lishni talab qiladi.

Shaxsning o‘z faoliyatini ongli ravishda tashkil etishi va erishilgan natijalar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi uning hayotiy hamda kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim psixologik omillardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda ichki lokus nazoratini rivojlantirish masalasi pedagogik va psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Lokus nazorat tushunchasi amerikalik psixolog Julian Rotter tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u shaxsning o‘z hayotida sodir bo‘ladigan voqealar va faoliyat natijalarini qanday omillar bilan izohlashini ifodalaydi [3]. Ichki lokus nazoratiga ega shaxs o‘z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini, avvalo, o‘z sa’y-harakatlari, bilimlari, qobiliyatlari va qabul qilgan qarorlari bilan bog‘laydi. Tashqi lokus nazoratiga ega shaxs esa faoliyat natijalarini tasodif, omad, taqdir, boshqa odamlar yoki tashqi sharoitlar ta’siri bilan izohlashga moyil bo‘ladi [3].

Ta’lim jarayonida ichki lokus nazoratining rivojlanganligi talabalarning o‘quv motivatsiyasi, akademik faolligi, mustaqil ta’lim olish qobiliyati va psixologik farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki nazoratga moyil talaba ta’lim natijalarini o‘zining faoliyati bilan bog‘lagani sababli o‘qishga mas’uliyat bilan

yondashadi, yuzaga kelgan qiyinchiliklardan qochmaydi va o‘z kamchiliklarini bartaraf etishga intiladi.

Ichki lokus nazorati shaxsning o‘z faoliyati va hayotiy hodisalar ustidan muayyan darajada nazoratga ega ekanligini his qilishi bilan tavsiflanadi. U shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mustaqilligi, mas’uliyati, refleksivligi va maqsadga intiluvchanligi bilan uzviy bog‘liqdir.

J. Rotter nazariyasiga ko‘ra, insonning xulq-atvori uning ma’lum bir vaziyatda rag‘batlantirish natijasini kutishi va mazkur natijaga bergan subyektiv qiymati bilan belgilanadi [3]. Agar talaba o‘z harakatlari o‘quv natijalariga bevosita ta’sir qilishiga ishonsa, u faolroq o‘qiydi, ko‘proq harakat qiladi va yuzaga kelgan muammolarni mustaqil hal qilishga intiladi.

Ichki lokus nazorati rivojlangan talabalarda quyidagi psixologik xususiyatlar ko‘proq namoyon bo‘ladi:

– o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish;

– mustaqil qaror qabul qilish;

– faoliyat maqsadlarini belgilash va rejalashtirish;

– akademik vazifalarni bajarishda qat’iyat ko‘rsatish;

– muvaffaqiyatsizliklardan konstruktiv xulosa chiqarish;

– o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish va tuzatish;

– stressli vaziyatlarda samarali kurashish strategiyalaridan foydalanish.

Ichki lokus nazoratining shakllanishida shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi ham muhim ahamiyatga ega. A. Banduraning o‘z samaradorligiga ishonch konsepsiyasiga ko‘ra, insonning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshira olishiga bo‘lgan ishonchi uning faolligi, qat’iyati va murakkab vazifalarni bajarishga tayyorligini belgilaydi [4]. O‘z imkoniyatlariga ishongan talaba murakkab topshiriqlarni tahdid sifatida emas, balki o‘z bilim va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati sifatida qabul qiladi.

Ichki lokus nazorati va o‘z samaradorligiga ishonch tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ular aynan bir xil emas. Ichki lokus nazorati faoliyat natijalarining manbasini shaxsning o‘zidan izohlashni bildirsa, o‘z samaradorligiga ishonch muayyan vazifani muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatiga nisbatan shaxsning ishonchini ifodalaydi [4]. Mazkur ikki psixologik xususiyatning uyg‘un rivojlanishi talabaning akademik faolligi va barqaror motivatsiyasini ta’minlaydi.

Akademik muvaffaqiyat faqat talabaning bilim darajasi yoki intellektual qobiliyatlari bilan belgilanmaydi. Unga o‘quv motivatsiyasi, maqsad qo‘yish, vaqtni boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, refleksiya, o‘ziga ishonch va mas’uliyat kabi ko‘plab psixologik omillar ta’sir ko‘rsatadi [2; 6].

Ichki lokus nazoratiga ega talabalar o‘zlarining akademik natijalarini o‘z harakatlari bilan bog‘laganlari sababli o‘quv faoliyatida faolroq ishtirok etadilar. Ular o‘qish jarayonini rejalashtirish, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, zarur axborotlarni mustaqil izlash va bilimlardagi bo‘shliqlarni bartaraf etishga ko‘proq moyil bo‘ladilar.

Bunday talabalar:

– o‘z oldiga aniq va real maqsadlar qo‘yadilar;

– o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich rejalashtiradilar;

– vaqt va resurslardan oqilona foydalanadilar;

– o‘zlashtirish natijalarini muntazam tahlil qiladilar;

– zarur hollarda faoliyat strategiyasini o‘zgartiradilar;

– muvaffaqiyatsizlik sabablarini tanqidiy baholaydilar.

O‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish nazariyasida ham talabaning maqsad qo‘yishi, faoliyatini rejalashtirishi, o‘z natijalarini kuzatishi va baholashi akademik muvaffaqiyatning muhim sharti sifatida qaraladi [6]. B. Zimmerman o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganishni talabaning o‘quv faoliyatida faol ishtirok etishi, o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini belgilangan maqsadga yo‘naltira olishi sifatida izohlaydi [6].

Ichki lokus nazorati talabaning o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish qobiliyatini mustahkamlaydi. O‘z faoliyati natijalarini ichki omillar bilan bog‘laydigan talaba o‘z xatolarini tan olishga, zarur o‘zgartirishlarni amalga oshirishga va kelgusi natijalarni yaxshilashga ko‘proq tayyor bo‘ladi.

Tashqi lokus nazoratiga moyil talabalar esa muvaffaqiyatsizlik sabablarini ko‘pincha o‘qituvchining talabchanligi, topshiriqning murakkabligi, vaqt yetishmasligi, noqulay sharoit yoki omadsizlik bilan izohlashlari mumkin. Bunday yondashuv talabaning o‘z faoliyatiga nisbatan javobgarligini kamaytirib, o‘quv motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Biroq ichki lokus nazoratini mutlaq tarzda ijobiy hodisa sifatida baholash ham to‘g‘ri emas. Talaba o‘z nazoratidan tashqarida bo‘lgan barcha salbiy holatlar uchun ham o‘zini ayblashi ortiqcha aybdorlik hissi, tashvish va emotsional zo‘riqishga olib kelishi mumkin. Shu sababli ta’lim jarayonida talabalarda adekvat va moslashuvchan ichki nazoratni shakllantirish muhimdir. Bunda talaba o‘z ta’siri doirasidagi omillar uchun mas’uliyatni his qilishi, biroq obyektiv tashqi sharoitlarni ham to‘g‘ri baholay olishi lozim.

Ichki lokus nazoratining asosiy tarkibiy komponentlari

O‘z-o‘zini anglash: talabaning o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, kuchli va zaif tomonlarini anglay olishi ichki lokus nazoratining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. O‘z-o‘zini anglash talabaning real imkoniyatlariga mos maqsadlar belgilashi va faoliyat strategiyalarini to‘g‘ri tanlashiga yordam beradi.

O‘z imkoniyatlarini yetarli darajada anglamaydigan talaba haddan tashqari murakkab yoki juda sodda maqsadlarni tanlashi mumkin. O‘z-o‘zini to‘g‘ri baholash esa talabaning o‘z bilim va ko‘nikmalarini muntazam takomillashtirishiga imkon yaratadi.

O‘quv motivatsiyasi: ichki lokus nazorati talabaning ichki motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. R. Rayan va E. Dechining o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra,

shaxsning avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlikka bo‘lgan asosiy psixologik ehtiyojlari qondirilganda ichki motivatsiya rivojlanadi [5].

Talabaga mustaqil tanlov imkoniyatining berilishi uning avtonomiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Murakkab, ammo bajarish mumkin bo‘lgan vazifalar talabaning kompetentlik hissini kuchaytiradi. O‘qituvchi va guruhdoshlar bilan ijobiy munosabatlar esa ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojining qondirilishiga xizmat qiladi [5].

Ichki motivatsiya va ichki lokus nazorati uyg‘unlashganda talaba faqat baho yoki tashqi rag‘bat uchun emas, balki bilim olish, o‘z imkoniyatlarini rivojlantirish va kasbiy mahoratga erishish uchun harakat qiladi.

Mas’uliyat hissi: mas’uliyat ichki lokus nazoratining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. O‘z faoliyati uchun javobgarlikni his qiladigan talaba o‘z oldiga maqsad qo‘yadi, unga erishish yo‘llarini rejalashtiradi va erishilgan natijalarni tahlil qiladi.

Mas’uliyat hissi talabaning o‘quv topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarishi, akademik halollik talablariga rioya qilishi va o‘z xatolarini tan olishi orqali namoyon bo‘ladi. Sh.R. Barotov ta’lim muhitidagi psixologik xizmat talabalarning mustaqilligi, mas’uliyati va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi lozimligini ta’kidlaydi [1].

Refleksivlik: refleksiya talabaning o‘z fikrlari, xatti-harakatlari, qarorlari va faoliyat natijalarini ongli tahlil qilish jarayonidir. Refleksiv fikrlash ichki lokus nazoratini rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Refleksiya jarayonida talaba quyidagi savollarga javob izlaydi:

– Men qanday maqsadni ko‘zlagan edim?

– Maqsadga erishish uchun nimalar qildim?

– Qaysi usullar samarali bo‘ldi?

– Qanday xatolarga yo‘l qo‘ydim?

– Keyingi safar nimani o‘zgartirishim kerak?

Mazkur savollar talabaning o‘z faoliyati va natijalari o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni anglashiga yordam beradi. Shu tariqa refleksiya ichki nazorat, mas’uliyat va o‘z-o‘zini boshqarishning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Talabalarda ichki lokus nazoratini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Talabalarda ichki lokus nazoratini rivojlantirish alohida bir mashg‘ulot yoki qisqa muddatli tadbir bilan chegaralanmasligi kerak. U ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, pedagogik metodlari, baholash tizimi va o‘qituvchi-talaba munosabatlarida izchil namoyon bo‘lishi lozim.

Birinchidan, talabalarga mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati yaratilishi zarur. O‘quv topshirig‘ining mavzusi, bajarish usuli, taqdimot shakli yoki foydalaniladigan manbalarni tanlash imkoniyatining berilishi talabalarning avtonomiyasini oshiradi [5].

Ikkinchidan, o‘qituvchi talabaning shaxsiyatini emas, uning faoliyati va tanlagan strategiyasini baholashi kerak. Masalan, “Siz bu mavzuni bilmaysiz” degan umumiy baho o‘rniga “Siz tanlagan usul masalani yechish uchun yetarli bo‘lmadi, boshqa strategiyani sinab ko‘rish zarur” mazmunidagi fikr talabaning natijani o‘z faoliyati bilan bog‘lashiga yordam beradi.

Uchinchidan, talabaning kichik yutuqlarini e’tirof etish va konstruktiv qayta aloqa berish muhimdir. J. Hattie va H. Timperley qayta aloqa ta’lim natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini, ayniqsa, talaba qayerga intilayotgani, hozir qayerda turgani va keyingi qadam qanday bo‘lishini tushunganida samaradorlik oshishini ta’kidlaydilar [7].

To‘rtinchidan, ta’lim jarayonida xatoga nisbatan konstruktiv munosabat shakllantirilishi kerak. Xato jazolanishi yoki qobiliyatsizlik belgisi sifatida emas, balki o‘rganish, tahlil qilish va rivojlanish manbai sifatida qabul qilinishi lozim.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv topshiriqlar, videodarslar va sun’iy intellektga asoslangan

vositalar talabaning o‘z o‘quv sur’ati va strategiyasini mustaqil belgilashiga yordam beradi.

Biroq texnologiyalardan foydalanishning o‘zi ichki lokus nazoratini avtomatik tarzda rivojlantirmaydi. Raqamli vositalar talabaning mustaqil qaror qabul qilishi, faoliyatini rejalashtirishi, natijalarni kuzatishi va o‘z xatolarini tahlil qilishi uchun yo‘naltirilgan holda qo‘llanilishi kerak.

Interaktiv o‘quv muhiti talabalarda quyidagi sifatlarni rivojlantiradi:

– mustaqil axborot izlash;

– muammolarni hal qilish;

– tanqidiy fikrlash;

– guruhiy hamkorlik;

– o‘z fikrini asoslash;

– qaror oqibatlarini baholash.

Tajribaviy o‘qitish talabalarning bevosita amaliy faoliyat orqali bilim va ko‘nikmalarni egallashini nazarda tutadi. Loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, keys-stadi, rolli o‘yinlar va amaliy mashg‘ulotlar talabaning o‘z qarorlarini qabul qilishi hamda ularning natijalari uchun javobgarlikni his qilishiga yordam beradi.

Loyiha asosida ta’lim jarayonida talaba muammoni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi, vazifalarni taqsimlaydi, zarur manbalarni izlaydi, amaliy faoliyatni tashkil etadi va yakuniy natijani baholaydi. Mazkur jarayonning barcha bosqichlari ichki lokus nazoratining tarkibiy komponentlari bilan bog‘liqdir.

Tajribaviy o‘qitish talabalarda:

– tashabbuskorlik;

– mustaqil qaror qabul qilish;

– ijodiy fikrlash;

– akademik mas’uliyat;

– muammolarni hal qilish;

– kasbiy kompetentlikni rivojlantiradi.

Mentorlik talabalarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Mentor talaba uchun tayyor qarorlarni beruvchi shaxs emas, balki uning muammoni mustaqil anglashiga va yechim topishiga yordam beruvchi yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritishi kerak.

Mentor va talaba o‘rtasidagi hamkorlik quyidagi vazifalarni bajaradi:

– talabaning shaxsiy va kasbiy maqsadlarini aniqlashtirish;

– rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish;

– o‘quv qiyinchiliklarini tahlil qilish;

– o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash;

– faoliyat natijalari uchun mas’uliyatni rivojlantirish.

Mentor doimiy ravishda talabani nazorat qilishi yoki uning o‘rniga qaror qabul qilishi ichki lokus nazoratining rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli mentorlik jarayonida talabaga mustaqillik va tanlov imkoniyati berilishi zarur.

An’anaviy baholashda asosiy e’tibor yakuniy natijaga qaratiladi. Refleksiv baholashda esa natija bilan bir qatorda talabaning faoliyat jarayoni, qo‘llagan strategiyalari, yo‘l qo‘ygan xatolari va erishgan o‘sishi ham tahlil qilinadi.

Refleksiv baholash vositalariga quyidagilar kiradi:

– refleksiv kundaliklar;

– elektron portfolio;

– o‘z-o‘zini baholash varaqalari;

– tengdoshlar baholashi;

– individual rivojlanish xaritalari;

– o‘quv faoliyati bo‘yicha yozma hisobotlar.

O‘z-o‘zini baholash talabaning bilim va ko‘nikmalarini real tahlil qilishiga, mavjud kamchiliklarni aniqlashiga hamda kelgusi rivojlanish maqsadlarini belgilashiga

yordam beradi. Refleksiv baholash talabaning o‘qituvchi bahosiga to‘liq qaram bo‘lib qolishining oldini oladi va o‘z faoliyatini mustaqil nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Qayta aloqa talabaning o‘z faoliyati va natijalari o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunishiga yordam beradigan muhim pedagogik vositadir. Samarali qayta aloqa aniq, o‘z vaqtida, tushunarli va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo‘lishi lozim [7].

Qayta aloqa berishda o‘qituvchi faqat kamchiliklarni ko‘rsatmasdan, ularni bartaraf etish usullarini ham tavsiya qilishi kerak. Masalan, “Javobingiz noto‘g‘ri” deyish o‘rniga “Javobning nazariy qismi to‘g‘ri, ammo xulosani dalillar bilan asoslash zarur” tarzidagi fikr talabaning keyingi harakatlarini aniq belgilashiga yordam beradi.

Talabalarda ichki lokus nazoratining rivojlanganligi nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki ruhiy salomatlik va psixologik barqarorlik bilan ham bog‘liqdir. O‘z harakatlari va qarorlari vaziyatning rivojlanishiga ta’sir qilishiga ishongan talaba qiyinchiliklarga nisbatan faol munosabat bildiradi.

Ichki lokus nazoratiga ega talabalarda:

– akademik stressga qarshi barqarorlik;

– muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan faol strategiyalar;

– o‘ziga bo‘lgan ishonch;

– psixologik moslashuvchanlik;

– maqsadga intiluvchanlik;

– hayotdan qoniqish darajasi yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

O‘z samaradorligiga bo‘lgan ishonch ham stressli vaziyatlarda shaxsning faol va konstruktiv strategiyalarni tanlashiga ta’sir ko‘rsatadi [4]. O‘z imkoniyatlariga ishonadigan talaba akademik qiyinchilikni bartaraf etish mumkin bo‘lgan vazifa sifatida qabul qiladi. Aksincha, o‘zini vaziyat ustidan nazoratga ega emas deb hisoblaydigan talabada ojizlik, xavotir va passivlik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Shu bilan birga, ichki lokus nazoratini rivojlantirish talabaga barcha natijalar faqat uning o‘ziga bog‘liq ekanligini singdirish bilan cheklanmasligi kerak. Ta’lim jarayonida shaxsning individual imkoniyatlari bilan bir qatorda ijtimoiy, iqtisodiy va pedagogik sharoitlarning ta’siri ham hisobga olinishi lozim. Sog‘lom ichki nazorat shaxsning o‘z imkoniyati doirasidagi harakatlar uchun mas’uliyatni qabul qilishi, nazoratdan tashqaridagi holatlarni esa obyektiv baholay olishini anglatadi.

Talabalarda ichki lokus nazoratini rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida quyidagi pedagogik va psixologik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. O‘quv jarayoniga loyiha asosida o‘qitish, keys-stadi va muammoli ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish.
2. Talabalarga topshiriq mavzusi, bajarish usuli va natijani taqdim etish shaklini tanlash imkoniyatini berish.
3. Talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish va maqsad qo‘yish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi treninglarni tashkil etish.
4. Mentorlik va tyutorlik tizimini talabaning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash tamoyili asosida takomillashtirish.
5. Refleksiv kundalik, portfolio va o‘z-o‘zini baholash varaqalaridan ta’lim jarayonida muntazam foydalanish.
6. Talabalarga shaxsiyatni emas, faoliyat jarayoni va tanlangan strategiyalarni baholovchi konstruktiv qayta aloqa berish.
7. Akademik muvaffaqiyatsizliklarni jazolash vositasi emas, balki rivojlanish va o‘rganish imkoniyati sifatida talqin qilish.
8. Talabalarning ichki motivatsiyasini rivojlantirish uchun avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish [5].
9. Psixologik xizmat faoliyatida talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mas’uliyati va ichki nazoratini rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish [1].

10. Talabalarning ichki va tashqi lokus nazorati ko‘rsatkichlarini psixodiagnostik metodlar yordamida o‘rganib borish va natijalar asosida individual tavsiyalar ishlab chiqish.

Xulosa

Talabalarda ichki lokus nazoratini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning muhim pedagogik-psixologik vazifalaridan biridir. Ichki lokus nazorati talabaning akademik faoliyatga mas’uliyatli munosabati, mustaqil qaror qabul qilishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi, natijalarni tahlil qilishi va yuzaga kelgan qiyinchiliklarni konstruktiv yengib o‘tishida namoyon bo‘ladi.

Ichki lokus nazoratining rivojlanishi talabaning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasi, ichki motivatsiyasi, refleksivligi va o‘z samaradorligiga bo‘lgan ishonchi bilan uzviy bog‘liqdir [4; 5; 6]. Mazkur psixologik xususiyatlarning uyg‘un rivojlanishi talabaning nafaqat akademik natijalariga, balki kasbiy tayyorgarligi, ruhiy salomatligi va ijtimoiy faolligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Loyiha asosida o‘qitish, tajribaviy ta’lim, mentorlik, refleksiv baholash, konstruktiv qayta aloqa va raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish talabalarda ichki lokus nazoratini rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi. Ushbu yondashuvlarni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish mustaqil, mas’uliyatli, faol va o‘z kasbiy rivojlanishini boshqara oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, talabalarda ichki lokus nazoratini shakllantirish faqat alohida psixologik sifatni rivojlantirish emas, balki ularning akademik muvaffaqiyati, shaxsiy kamoloti va kelajakdagi kasbiy faoliyatini ta’minlovchi integrativ psixologik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat. – Toshkent: Navro‘z, 2018. – 96 b.

2. G‘oziyev E.G‘., Jabborov A. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. – Toshkent, 2003.

3. Rotter J.B. Generalized Expectancies for Internal versus External Control of Reinforcement // Psychological Monographs: General and Applied. – 1966. – Vol. 80. – No. 1. – P. 1–28.

4. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman and Company, 1997. – 604 p.

5. Ryan R.M., Deci E.L. Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions // Contemporary Educational Psychology. – 2000. – Vol. 25. – No. 1. – P. 54–67.

6. Zimmerman B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory into Practice. – 2002. – Vol. 41. – No. 2. – P. 64–70.

7. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. – 2007. – Vol. 77. – No. 1. – P. 81–112.

8. Pintrich P.R. The Role of Motivation in Promoting and Sustaining Self-Regulated Learning // International Journal of Educational Research. – 1999. – Vol. 31. – No. 6. – P. 459–470.

9. Schunk D.H. Self-Efficacy and Academic Motivation // Educational Psychologist. – 1991. – Vol. 26. – No. 3–4. – P. 207–231.

10. Lefcourt H.M. Locus of Control: Current Trends in Theory and Research. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1982.

11. Ismatulloyev, A. (2025). Bo‘lajak maktabgacha ta’lim pedagoglarining ijtimoiy-kasbiy rivojlanishida lokus nazoratning ahamiyati. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.1), 235-237.

12. Ismatulloyev, A. N. (2024). Talabalik davrida lokus nazoratning psixologik xususiyatlari. Inter education & global study, (9), 414-422.

13. Исматуллоев, А. Н. (2025). Взаимосвязь локуса контроля и мотивации достижения успеха у студентов младших курсов. Inter education & global study, (3), 735-745.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Irsaliyeva Gulrux Saparbayevna

TGFU,

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Annotatsiya. *Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tizimli adabiyotlar tahlili asosida yoritiladi. Muammoning dolzarbligi global raqamlashuv jarayonlari va O'zbekistonning milliy raqamli ta'lim siyosati nuqtayi nazaridan asoslanadi, mediakompetentlik tushunchasining mazmuni va tarkibiy komponentlari xorijiy (DigCompEdu, TPACK) va mahalliy (kasbiy-pedagogik kompetentlik nazariyasi) modellar asosida tahlil qilinadi, uni rivojlantirishga doir zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa xorij va o'zbek olimlarining tadqiqotlari qiyosida ko'rib chiqiladi. Olingan nazariy tahlil natijalari — ya'ni manbalarni qiyoslash va tizimlashtirish orqali chiqarilgan xulosalar — mediakompetentlikni rivojlantirish muammosining ko'p qatlamli xususiyatga ega ekanligini hamda uni yechish integrativ, bosqichli yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *mediakompetentlik, mediata'lim, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, DigCompEdu, TPACK, raqamli savodxonlik, tanqidiy tafakkur, pedagogik yondashuv.*

Kirish

2025-yil boshiga kelib O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 32,7 millionni, ya'ni aholining 87,2 foizini tashkil etdi [15]. Shu davrda o'tkazilgan keng qamrovli so'rovnomada respondentlarning 97 foizi raqamli ko'nikmalarni muvaffaqiyat kaliti deb baholagan bo'lsa-da, ularning atigi 57 foizi video-aloqa vositalaridan muntazam foydalanishini tan oldi [15]. Bu tafovut shuni ko'rsatadiki, aholi, jumladan yosh avlod, media makonda faol ishtirok etmoqda, ammo undan ongli va tanqidiy foydalanish darajasi hali barqaror emas — demak, o'qituvchi endi shunchaki axborot uzatuvchi emas, balki o'quvchini media oqimida yo'naltiruvchi shaxsga aylanishi zarur.

Xorijiy tadqiqotchilar bu muammoni ancha oldin ko'targan: Fedorov mediata'limni jamiyat axborot madaniyatining mustaqil tarkibiy qismi sifatida asoslasa [1], Buckingham uni tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi fan sifatida talqin qiladi [2]. Biroq amaliyot boshqacha manzarani ko'rsatadi: Gretterning tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarning mediata'limga ijobiy munosabati mavjud bo'lsa-da, ularning katta qismi buni mustaqil o'quv jarayoniga tatbiq etishga o'zini tayyor his qilmagan [7], Hahn va Grafe esa nemis ta'lim tizimida mediata'lim mazmuni fanlar orasida tarqoq joylashgani sababli bitiruvchilarda yaxlit kompetentlik shakllanmay qolayotganini aniqlagan [9]. Bu ikki tadqiqot muammoning nafaqat texnologik, balki tashkiliy-didaktik xususiyatga ham ega ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda ham bu masala e'tibordan chetda emas. Ro'ziyev va Abdullayevaning darsligida ta'kidlanishicha, o'qituvchining axborot-pedagogik kompetensiyasi kasbiy mahoratining muhim ko'rsatkichi bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi o'quv-uslubiy ta'minot hali shakllanish bosqichida [11]; Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy kengashda himoya qilingan tadqiqotda ham shu muammo alohida ilmiy yo'nalish sifatida qayd etilgan [13]. Bu holat "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan pedagog kadrlar sifatini oshirish vazifasi bilan uzviy bog'liq [14]. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mediakompetentlik texnik AKT-ko'nikmalaridan farqli o'laroq, birinchi navbatda mazmuniy-baholovchi xususiyatga ega — u vosita orqali

uzatilayotgan g'oya va faktni tanqidiy anglashni talab qiladi [2][4], shu bois ikki tushunchani aniq farqlash tadqiqotning muhim vazifalaridan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolaning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini uch yo'nalishda — muammoning dolzarbligi, uning mazmuni va uni rivojlantirishga doir zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan — tizimli tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari mos ravishda 1.1, 1.2 va 1.3-paragraflarda hal etiladi: dolzarblikni xalqaro va milliy empirik ma'lumotlar asosida asoslash; tushunchaning tarkibiy mazmunini xorijiy va mahalliy nazariy modellarni qiyoslab aniqlashtirish; mavjud pedagogik yondashuvlarni tizimlashtirib, ularning imkoniyat va cheklovlarini ochib berish.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot tizimli adabiyotlar tahlili (systematic literature review) metodologiyasiga asoslanadi va uchta izchil bosqichda amalga oshirildi: manba qidirish, saralash (skrining) va kodlashtirish. Qidiruv ikki yo'nalishda olib borildi: xorijiy manbalar "media literacy", "media competence", "pre-service teachers", "digital competence of educators" kalit so'zlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar (UNESCO, Yevropa Komissiyasi) rasmiy hujjatlari va taqrizdan o'tgan xalqaro jurnallar orasidan; mahalliy manbalar esa "mediakompetentlik", "bo'lajak o'qituvchi", "kasbiy-pedagogik kompetentlik" kalit so'zlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tan olgan jurnallar, oliy ta'lim darsliklari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar orasidan qidirildi.

Saralash bosqichida quyidagi kiritish mezonlari qo'llanildi: (1) manbada mediakompetentlik yoki uning tarkibiy qismlariga aniq ta'rif yoki model berilgan bo'lishi; (2) nashrning taqrizdan o'tgan yoxud rasmiy tashkilot (UNESCO, Yevropa Komissiyasi, davlat organi) tomonidan tasdiqlanganligi; (3) 2001–2026 yillar oralig'ida chop etilganligi; (4) bo'lajak yoki amaldagi o'qituvchilarni tayyorlash kontekstiga

bevosita tegishliligi. Chiqarib tashlash mezoni sifatida faqat o'quvchilarning (talabalar emas) media savodxonligiga bag'ishlangan, o'qituvchi tayyorgarligiga aloqasi bo'lmagan nashrlar tahlildan chetlashtirildi. Ushbu mezonlar asosida jami o'n oltita manba tanlab olindi: to'qqiztasi xorijiy (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va xalqaro tashkilotlar nashrlari), yettitasi mahalliy (O'zbekiston) manbalardir.

Kodlashtirish bosqichida har bir manba uchta parametr bo'yicha tahlil qilindi: manbaning nazariy yoki empirik xususiyati, muammoning geografik konteksti (xalqaro yoki milliy) va taklif etilgan yechim darajasi (kontseptual model, diagnostik vosita yoki amaliy texnologiya). Shu asosda natijalar uch mazmuniy blokka — muammoning dolzarbligi, tushunchaning tarkibiy mazmuni va pedagogik yondashuvlar — guruhlandi, xorijiy va mahalliy manbalar esa alohida emas, qiyosiy tarzda taqdim etildi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, tahlil faqat ochiq manbalar bilan chegaralangan, shu sababli chop etilmagan dissertatsiya va hisobotlar to'liq qamrab olinmagan; shunga qaramay, tanlangan manbalar mavzuning nazariy landshaftini yetarlicha to'liq aks ettiradi.

Natijalar va muhokama

Tahlil natijalari mediakompetentlikni rivojlantirish muammosining kamida uch qatlamda dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Birinchi qatlam — global texnologik omil. Ijtimoiy tarmoqlar, generativ sun'iy intellekt asosidagi kontent yaratish vositalarining jadal tarqalishi natijasida axborotni tanqidiy idrok etish endi nafaqat o'quvchilar, balki ularni tarbiyalaydigan bo'lajak o'qituvchilar uchun ham zaruriy kasbiy sifatga aylandi. Fedorov ta'kidlaganidek, media makon kengaygan sari pedagogning o'zi ham axborot iste'molchisi, ham uni tanqidiy tahlil qiluvchi mutaxassis rolini bajarishi lozim [1].

Ikkinchi qatlam — institutsional bo'shliq. Gretterning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning mediata'limga nisbatan ijobiy munosabati mavjud bo'lsa-da, bu munosabat mustaqil pedagogik xatti-harakatga aylanishi uchun aniq o'quv rejasi va

amaliy ko'nikma zarur — aks holda ijobiy niyat sinf xonasida amalga oshmay qoladi [7]. Hahn va Grafe bu muammoni yanada aniqlashtiradi: ular nemis pedagogika ta'limi tizimida mediata'lim mazmuni bir nechta fanlar orasida tarqoq joylashganini, natijada bitiruvchilarda yaxlit tizimli bilim shakllanmasligini aniqlaydi va buning o'rniga integrativ pedagogik kontseptsiya taklif qiladi [9]. Bu ikki tadqiqot birgalikda shuni ko'rsatadiki, muammo faqat texnologik emas, balki tashkiliy-didaktik xususiyatga ham ega.

Uchinchi qatlam — milliy kontekst. O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni aholining 87,2 foizini tashkil etishi [15], shu bilan birga aholining raqamli ko'nikmalar darajasini o'zi past baholashi (masalan, video-aloqa vositalaridan muntazam foydalanuvchilar ulushi atigi 57 foiz) [15] — bu tafovut mediakompetentlikni maqsadli shakllantirish zaruratini yaqqol ko'rsatadi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy kengashda himoya qilingan tadqiqotda uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablari ijtimoiy fanlar o'qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega muammo sifatida asoslab berilgan [13], bu esa masalaning nafaqat pedagogika oliy ta'limi, balki butun uzluksiz ta'lim tizimi uchun dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan [14], bu esa mavzuni ilmiy jihatdan asoslashni nafaqat akademik, balki amaliy-siyosiy zaruratga aylantiradi.

Tahlil qilingan manbalar sonini qiyoslash ham muammoning holatini bilvosita ko'rsatadi: xorijiy pedagogika fanida mediakompetentlik mavzusi kamida qirq yildan buyon (Masterman, 1985-yildan boshlab) izchil tadqiq qilib kelinayotgan bo'lsa [3], mahalliy pedagogika fanida bu mavzu asosan so'nggi besh-olti yil ichida, ayniqsa "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi qabul qilingandan keyin faollashdi [11][12][14][16]. Bu farq salbiy emas — aksincha, u O'zbekiston pedagogika fani uchun xorijiy tajribani tanqidiy o'zlashtirib, milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatini

beradi, biroq shu bilan birga tezlashtirilgan ilmiy-amaliy ishlarni talab qiladi, chunki amaliyot nazariyadan tezroq rivojlanmoqda.

Muammoni e'tibordan chetda qoldirishning pedagogik oqibatlari ham tahlil qilingan manbalarda aniq ko'rsatilgan. Agar bo'lajak o'qituvchi o'z mediakompetentligini rivojlantirmasdan kasbiy faoliyatni boshlasa, u kelajakda kamida uchta muammoga duch keladi: birinchidan, sinfda tarqalayotgan dezinformatsiyani o'z vaqtida aniqlay olmaydi; ikkinchidan, o'quv jarayoniga raqamli vositalarni pedagogik jihatdan asossiz, faqat "zamonaviylik uchun" kiritadi, bu esa Koehler va Mishra ta'kidlagan texnologiya-pedagogika-mazmun muvozanatini buzadi [5]; uchinchidan, o'quvchilarda mediakompetentlikni maqsadli shakllantira olmaydi, chunki o'zi bu ko'nikmaga ega emas. Shu bois muammoni "kelajakda o'z-o'zidan hal bo'ladigan" jarayon sifatida emas, balki hozirdanoq maqsadli pedagogik aralashuvni talab qiluvchi vazifa sifatida qarash lozim.

Mediakompetentlik bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatida axborot-kommunikatsion muhitda samarali va mas'uliyatli harakat qilish, media matnlarni tanqidiy idrok etish, ularni pedagogik maqsadlarda qayta ishlash va yaratish qobiliyati sifatida talqin qilinadi [2][4]. Tahlil qilingan manbalar bu tushunchaning tarkibiy mazmunini ikki xil, ammo bir-birini to'ldiruvchi mantiqda ochib beradi.

Birinchi mantiq — komponentlar asosida tuzilgan model. Bunga ko'ra mediakompetentlik to'rt komponentdan iborat: kognitiv (media va uning ijtimoiy-pedagogik ta'siri haqidagi bilimlar), operatsional-faoliyat (media vositalar va raqamli platformalardan foydalanish ko'nikmalari), tanqidiy-baholash (axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish qobiliyati) va ijodiy-kommunikativ (media kontent yaratish va uni pedagogik jarayonga integratsiya qilish ko'nikmalari) [3][4]. O'zbek pedagogika fanida N.A.Muslimov va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi shu mantiqning metodologik negizini tashkil etadi:

mualliflar kasbiy kompetentlikni bilim, ko'nikma va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish birligi sifatida belgilaydi [10], bu ta'rif mediakompetentlikka ham to'liq qo'llanilishi mumkin — chunki mediakompetentlik ham, avvalambor, bilimni amaliy pedagogik vaziyatda qo'llay olish qobiliyatidir.

Ikkinchi mantiq — funksional soha (domen) asosida tuzilgan model bo'lib, unga eng yaqqol misol Yevropa Komissiyasining DigCompEdu freymvorki hisoblanadi: Redecker tomonidan ishlab chiqilgan bu freymvork o'qituvchi raqamli kompetensiyasini olti sohaga va yigirma ikkita ko'nikmaga ajratadi, ularning so'nggisi — o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish — mediakompetentlikning pedagogik mohiyatiga bevosita mos keladi [6]. Koehler va Mishraning TPACK modeli esa mediakompetentlikning uchinchi o'lchamini — texnologiya, pedagogika va fan mazmunining kesishmasini — ko'rsatib beradi: bo'lajak o'qituvchi nafaqat texnik vositani, balki uni aynan qaysi pedagogik vaziyatda va qaysi fan mazmuni doirasida qo'llash kerakligini ham bilishi lozim [5].

Ikkala mantiqni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ular bir-biriga zid emas, balki bir-birini to'ldiradi: komponentlar modeli mediakompetentlikning "ichki tuzilishi"ni (nima bilishi, nima qila olishi kerak), domen modeli esa uning "qo'llanilish maydoni"ni (qaerda va qanday vaziyatlarda namoyon bo'lishi kerak) tavsiflaydi. Bundan muhim metodologik xulosa kelib chiqadi: mediakompetentlikni yagona test yoki so'rovnoma orqali o'lchash mumkin emas, chunki uning har bir komponenti (bilim, ko'nikma, tanqidiy baholash, ijodiy faoliyat) o'ziga xos baholash vositasini talab qiladi — bu jihat keyingi (amaliy) tadqiqot bosqichida baholash tizimini loyihalashda hisobga olinishi shart. Shu boisdan bo'lajak o'qituvchini tayyorlash dasturlarini loyihalashtirishda ikkala modelni birgalikda — mazmun-tarkibiy asos sifatida komponentlar modelini, amaliy yo'naltirilganlik mezoni sifatida esa DigCompEdu kabi domen modellarini — hisobga olish maqsadga muvofiq.

Pedagogika fanida mediakompetentlikni rivojlantirishga doir bir necha yondashuv shakllangan bo'lib, ular tarixiy jihatdan bir-birini almashtirib emas, balki bir-birini to'ldirib rivojlangan: himoyalovchi, tanqidiy-tahliliy, kompetentlilik va amaliy-faoliyat yondashuvlari. Ularning har birini alohida tavsiflash o'rniga, quyidagi jadvalda maqsadi, tayanch mualliflari, afzalligi va cheklovi qiyosiy tarzda umumlashtirildi (1-jadval).

1-jadval. Mediakompetentlikni rivojlantirishga doir pedagogik yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Yondashuv	**Maqsadi**	**Asosiy mualliflar**	**Afzalligi**	**Cheklovi**
Himoyalovchi (protectionist)	Media ta'sirlaridan himoyalanish, zararli kontentni aniqlash	Masterman [3]	Tez va oson tashkil etiladi	Talabani passiv, faqat “qochuvchi” pozitsiyada qoldiradi
Tanqidiy-tahliliy	Media matnlarni ijtimoiy-madaniy kontekstda tahlil qilish	Buckingham [2]	Chuqur tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi	Ko'p vaqt va yuqori malakali instruktorni talab qiladi
Kompetentlilik	Bilim, ko'nikma va munosabatni o'lchanadigan natijaga aylantirish	Potter [4]; UNESCO [8]	Natijani aniq mezonlar bilan o'lchash imkonini beradi	Mexanik qo'llanilsa, mediakompetentlikni “bilim ro'yxati”ga aylantirib qo'yadi
Amaliy-faoliyat	Talabani bevosita media kontent yaratish/tahlil faoliyatiga jalb etish	Gretter [7]; Hahn, Grafe [9]	Eng yuqori motivatsiya va amaliy ko'nikma darajasini beradi	Tashkiliy jihatdan eng murakkab, resurs va vaqt talab qiladi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yondashuvlarning hech biri alohida holda yetarli natija bermaydi: himoyalovchi yondashuv faqat ogohlantirish beradi, tanqidiy-tahliliy yondashuv fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi-yu, amaliy faoliyatga tarjima qilinmasa, samarasiz qoladi, kompetentlilik yondashuvi o'lchov mezonlarini beradi, ammo mustaqil rivojlantiruvchi kuchga ega emas. Demak, yondashuvni tanlash mavhum "eng yaxshisi" mezoni bilan emas, balki muassasaning resurs imkoniyati va talabalar tayyorgarlik darajasi bilan belgilanishi kerak.

O'zbek pedagogika fanida ham bu yo'nalishda mustaqil ilmiy natijalar shakllanmoqda. Islomov oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining mediakompetentligini shakllantirish va oshirish uchun uchta xorijiy modelni — almashtirish-kengaytirish-transformatsiya (RAT), texnologik-pedagogik-mazmuniy bilim (TPCK/TPACK) va "Erta boshlangan sinf" (ACOT) modellarini — mahalliy oliy ta'lim sharoitiga moslashtirib tahlil qiladi [12]. Yuldashevaning so'nggi tadqiqotida esa bo'lajak o'qituvchilarda raqamli va media kompetensiyani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida multimodal o'qitish, gamifikatsiya, simulyatsion muhitlar, kengaytirilgan va virtual reallik (AR/VR) hamda sun'iy intellektga asoslangan vositalar ko'rsatiladi, bu yondashuvlar AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlari tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilingan [16]. Bu ikki tadqiqot xorijiy modellarni mahalliy sharoitga moslashtirishning amaliy yo'lini ko'rsatishi bilan qimmatlidir — xususan, Islomov taklif etgan RAT modelining bosqichma-bosqich (avval almashtirish, so'ng kengaytirish, nihoyat transformatsiya) mantig'i mavjud o'quv dasturlarini tubdan qayta qurmasdan turib ham amaliy natijaga erishish imkonini beradi [12].

Ushbu yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish yagona xulosaga olib keladi: xorijiy (Fedorov, Buckingham, Masterman, Potter, UNESCO) va mahalliy (Muslimov, Islomov, Yuldasheva) manbalar mediakompetentlikni samarali rivojlantirish to'rtta yondashuvni — himoya, tanqidiy tahlil, kompetentlilik va amaliy faoliyat — izchil, bosqichma-bosqich birlashtiruvchi integrativ pedagogik texnologiyani talab qilishini

bir ovozdan tasdiqlaydi. Aynan shu xulosa keyingi tadqiqot bosqichida amaliy-texnologik modelni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

O'tkazilgan tizimli tahlil bo'lajak o'qituvchilarda mediakompetentlikni rivojlantirish muammosining uch jihatdan — dolzarblik, mazmun va yondashuvlar nuqtayi nazaridan — chuqur ilmiy asosga ega ekanligini ko'rsatdi. Muammoning dolzarbligi nafaqat global texnologik o'zgarishlar, balki O'zbekistondagi raqamli infratuzilma va aholi ko'nikmalari o'rtasidagi tafovut bilan ham tasdiqlanadi [15]. Mediakompetentlikning mazmuni komponentlar asosidagi va domen asosidagi (DigCompEdu, TPACK) modellarning o'zaro to'ldiruvchi birligi sifatida aniqlanishi mumkin, bu esa mahalliy kasbiy kompetentlik nazariyasi bilan uyg'un keladi [10]. Rivojlantirishga doir pedagogik yondashuvlar tahlili esa hech bir alohida yondashuv yetarli emasligini, balki himoya, tanqidiy tahlil, kompetentlilik va amaliy faoliyat yondashuvlarining integratsiyasi zarurligini isbotladi.

